



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

“DAK ga tavsiya etaman”
Magistratura bo'limi boshlig'i


I. Ikromov
“ ” 2017 yil

“DAK ga tavsiya etaman”
kafedra mudiri


Sh. Abdurahmonov
“ ” 2017 yil

**TOJIMATOV RASULJON
G'ANIJONOVICHNING**

**«Said Ahmad hajviy asarlarining
lingvopoetikasi»**

MAVZUSIDAGI

**5A120102 – Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha
Magistr
akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:



fil. fan. nomzodi Sh. Abdurahmonov

Namangan – 2017

MUNDARIJA

Kirish.....	2
I. Bob. Said Ahmadning hajvchilikdagi mahorati.	
1.1. Yumor va satira.....	4
1.2. Said Ahmad hajviyotiga ustozlarning ta`siri.	8
1.3. Askiya va latifalarning ta`siri.	10
1.4. Lisoniy birliklardagi zidlanish orqali badiiylikning yuzaga kelishi....	12
II. Bob. Said Ahmad hajviyotining lisoniy omillari.	
2.1. Yozuvchining hajv yaratish usullari.....	21
2.2. Frazeologiyaning hajv yaratishdagi o`rni.....	29
2.3. Jinslararo nutq farqlanishi.....	38
2.4. Mubolag`ali matnda komiklik.....	41
2.5. Kinoyali hajvning lisoniy xususiyatlari.....	45
III. Said Ahmad hajviy asarlarida qo`llangan nomlarning linvopoetik xususiyatlari.	
3.1. Kinoyaviy presuppozitsiyaga ishora qiluvchi nomlar.....	54
3.2. Hajviy asarlarda qo`llangan laqablar.....	65
3.3. Metaforik nomlarning hajviy matnlardagi o`rni.....	71
Umumiy xulosalar.....	77
Foydalanilgan adabiyotlar.....	80

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin, xalqimizning o'z tili, madaniyati tarixini, qadriyatlarini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Odamzod borki, avlod - ajdodi kimligini, o'zi tug'ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishini istaydi. Zero, "O'zlikni anglash tarixdan boshlanadi".¹ O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning fikriga tayangan holda, xalq tarixining asosiy va ajralmas qismi bo'lgan xalq tilining, uning o'ziga xos fonetik, leksik, grammatik jihatlarini badiiy asarlarning lisoniy birliklari asosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz "Said Ahmad asarlarining lingvopoetikasi" nomli dissertatsiyamizda ana shu jihatlarni e'tiborga oldik. Said Ahmad asarlari tilida xalq tilining barcha elementlari uchraydiki, bu asarning xalqchilligi, ta'sirchanligi, obrazlilikini ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

Zero, yozuvchi asarlarning lingvopoetik xususiyatlarini keng qamrovli o'rganish tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari uchun ham dolzarblik kasb etadi.

Mavzuning o'rganilishi. Badiiy asarlarning lisoniy xususiyatlari jahon tilshunosligida ham ko'pgina tadqiqoti obyektibo'lgan. ²Xususan, Said Ahmad asarlarining ayrim tilxususiyatlari qisman o'rganilgan. Shuningdek, Sh. Ahmedovanning "Said Ahmadning badiiy mahorati" nomli nomzodlik dissertatsiyasi mavjud bo'lib unda yozuvchi asarlari adabiyotshunoslik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Biz esa ushbu dissertatsiyamizda uning alohida til xususiyatlarini tadqiq etamiz. Zero, "Haqqoniy tarixni bilmasdan turib o'zlikni anglash mumkin emas, o'zlikni anglash esa, o'z tilini, uning cheksiz imkoniyatlari va jozibasini bilishdan boshlanadi".³

Dissertatsiyaning maqsadvavazifasi. S.Ahmad hajviy asarlarining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilish bo'lib, unda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- S.Ahmadning badiiy mahoratini o'rganish;
- S.Ahmad hajviy asarlarining lisoniy tahlili;

¹Каримов.И. Тарихийхотирасизкелажакйўк. Тошкент: "Шарк" нашриётиматбаа концерни бош тахририяти, 1998, 5 бет.

²Максименко Е.В. Языковые средства создания комического в современной французской художественной прозе. Автореф. канд. филол. наук. Киев, 1983, ст. 9); Нурмонов А., Махмудов Н., ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Тошкент, 1992, 43-бет; Йўлдошев Б. Бадий нутқ стилистикаси. – Саманқанд. 1982, 26-бет; Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. –Тошкент, 1977, 12-бет.

³Каримов.И. Тарихийхотирасизкелажакйўк. Тошкент: "Шарк" нашриётиматбаа концерни бош тахририяти. 1998.

- S.Ahmad asarlarida qoʻllangan badiiy tasvir vositalari;
- S.Ahmad hajviyalarida presupozitsiya ifodalanishi;
- S.Ahmadning metaforalardan foydalanish mahorati;
- S.Ahmad hajviyalarida qoʻllangan iboralarning lisoniy xususiyatlari tadqiq qilish.

Dissertatsiyaning obyekti. S.Ahmad hajviy asarlari hamda ularni tahlil qilish mazkur dissertatsiya uchun tadqiqot obyekti qilib olindi.

Dissertatsiyaning nazariy – uslubiy asosi. Mavzuni yoritish davomida ilmiylik, xolislik, tarixiylik, davriylik kabi tamoyillarga tayanildi. Tadqiqot jarayonida tanlangan mavzuga milliy va ma'naviy qadriyatlar, ilmiy gʻoyadan kelib chiqqan holda yondashildi. Dissertatsiyaning ilmiy-nazariy hamda metodologik asoslarini belgilashda I.A.Karimovning ma'naviy qadriyatlar, milliy anʼanalar va tarixiy xotiraning mohiyati, milliy madaniyatni takomillashtirish va ma'naviy komillikka erishish haqidagi asarlaridagi nazariy qarashlarga, etakchi tilshunos olimlar professor A.Nurmonov, N.Mahmudov, B.Yoʻldoshev, R.Qoʻngʻurov, M.Mirtojiev, M.Mukarramov, Sh.Iskandarova, M.Hakimov kabilarning ilmiy gʻoyalariga asoslanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot natijalaridan oʻrta maxsus kasb – hunar taʼlimi tizimida ona tili va adabiyot fanlarini oʻqitishda, shuningdek, oily taʼlimning filologiya yoʻnalishlarida matn tilshunosligi, badiiy tahlil asoslari fanlarini oʻqitishda material sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot metodlari. Ishda umumiylik va xususiylik, tavsifiy, kontekstual tahlil kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida Said Ahmad hajviy asarlarini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilindi.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi ___bet.

I. Bob. Said Ahmadning hajvchilikdagi mahorati.

1.1. Yumor va satira.

Satira haqida ancha tadqiqotlar yuzaga kelganligi holda adabiyot nazariyasi oldida uzoq vaqtdan beri yumorga aniq ta'rif berish vazifasi turibdiki, uning yordamida satirik, yumoristik va shunday xususiyatga ega hayotbaxsh kulgiga boy asarlar o'rtasidagi tafovutni to'g'ri ajratish tobora zaruriyatga aylanib bormoqda. Chunki hayotda bo'lganikabi adabiyotda ham bunday kulgi o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Uning mohiyati faqat kulgi hosil qilishdan iborat emas, balki u insonni yashartirishga xizmat qiladi. Beg'ubor, odamlarni bir-biriga mehribon, oqibatli va inoqqiladigan bunday kulgiga ham alohida diqqatni qaratish zarur.

Hajv o'z tabiatiga ega mukammal, alohida bir tizimdir. U tarkiban bir necha tizimchalarni o'zida birlashtirgan holda yaxlitlik kasb etadi.

Yumor inglizcha - fe'l-atvor, xulq so'zidan, lotincha - suyuklik so'zidan olingan. (Qadimgi zamonlarda kishilar yer yuzidagi barcha mavjudot to'rt unsur - suyuqlik, o't, havo va tuproqdan yaratilgan deb o'ylaganlar. Shunga bog'liq holda odamlarda ham to'rt mijoz (temperament) bor, deb hisoblangan: xo'l, issiq, quruq va sovuq)⁴. Demak, insonga nisbatan berilgan to'rt xususiyatni ifodalagan.

Yumor kulgisini o'zbekchaga zarofat (zariflik) kulgisi deb o'girish mumkin. Negaki, yumor tuyg'usiga ega odamlar nozik did, zakiy, zarif bo'lishi, hazil-mutoyibani sevishi, xalqimiz ham bunday odamlarni zukko, zarif deb atashi shunday xulosa qilish imkonini beradi. Demak, yumor-zakiylik, zarofat (yoki zarifona kulgi) kulgisidir. Biroq, hozircha yumor atamasi keng ma'noda qo'llanishi, badiiy asarlarda turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lishi, har bir ko'rinishda o'ziga xos qirralarini alohida aks ettirishi tufayli xalqaro miqyosda iste'mol qilinishini hisobga olib, o'z holicha qabul qilgan ma'quldir.

Yumoristik tasvirlash usulining qonuniyligi tasvirlanayotgan hodisaning o'ziga xos xususiyatlaridan va san'atkorning unga munosabatidan kelib chiqadi. Adib

⁴Пинский Л. Магистральный сюжет. - М.: "Советским писатель", 1989.

hodisadagi komizmni ochishga, obrazlarni individuallashtirishga, hodisalarning muhim qirralarini yoritishga obyektivlikni buzmasdan ham erishishi mumkin. Hodisadagi ikkinchi darajali xususiyatlarning ijobiyligini chuqurroq his etgan holda aks ettirar ekan, yumorist keng imkoniyatlarga ega bo'ladi: yumor tasvirlanayotgan hodisaning real ko'rinishini o'zida ko'proq saqlaydi, hodisa va uningturli xususiyatlarinihar tomonlama tasvirlay oladi, chunki satira ijobiy hodisalarni o'zining obyekti qilib ololmaydi, yumor esa ham ijobiy,ham salbiy voqea-hodisalarni kulgili qilib tasvirlash imkoniyatiga ega.

Yumorda hayotiyfaktlarni qayta ishlash satiraga nisbatan boshqacha.

Satirada tasvirlanayotgan hodisaga nisbatan salbiy his-tuyg'uni, xususiyatni kuchaytirish mayli ustivorlik qiladi, eng oddiy narsalar ham inkorni kuchaychiradi. Yumorda esa, aksincha, yumoristik lavhalardagi, obrazdagi komizm - bu hodisaning umumiy ijobiyligi fonida berilayotgan detallar komizmidir.Yumoristik bo'lmagan obrazlarning hajviy qirralari personajlarning ichki hayoti yoki tashqi ko'rinishlariga tegishli xususiyatlari turli-tuman shakllarda berilishidan qat'iy nazar, undagi ijobiy taassurotni buzmaydi.

Yumorga pafosning bir ko'rinishi deb qarash ham uning imkoniyatlari kengligini ko'rsatadi⁵.

Yumor asosida muallifning voqelikka nisbatan kulgili va ijobiy munosabati yotadi, bu munosabat g'azab bilan emas, balki achinish, hamdardlik, ba'zan beozorlik tuyg'ularida ifodalanadi.Yumor o'zining bir qancha qirralari bilan o'zaro munosabatlarda ajralib turadi: unga goh achinish, goh xursandlik, goh qoniqish, goh narsalarni komiklik chegarasidan uzoqlashtirib, bazan yuksaklikka, ba'zan qahramonlikka, ba'zan go'zallikka yaqinlashtiradigan faylasufona munosabatlar xosdir.

Yumordan keng ko'lamda foydalanish Said Ahmad uslubining originalligini ko'rsatadi. Buning sababi nimada? Kulgi vositasida muhim ijtimoiy-axloqiy

⁵Введение в литературоведение. М., "Висшая школа", 1970 .С.112-113.

masalalarni o`rtaga quyish, hayot haqiqatini ayta olish, davrning hajviy tiplarini yaratish mumkin. Shu orqali kulgini san`at darajasiga ko`tarish mumkinligini chuqur anglagan Said Ahmad asarlarida samimiy lirizm quvnoq komizm bilan qo`shilib ketadi, bir-birini to`ldiradi va hayotni mukammalroq aks ettirishga yordam beradi. Shu tufayli yozuvchi ijodida yumoristik yo`nalish, ayniqsa, bo`rtib ko`rinadi, buning natijasida Said Ahmad insonga bo`lgan muhabbatdan tug`iladigan o`zbekona milliy kulgini yaratadi. Bu bilan o`zbek hajviyotiga sermazmun yumorni olib kirdi. Shu zaylda yumor adib uslubini belgilovchi bosh xususiyatlardan biriga aylanib qoldi.

Said Ahmadning noyob iste`dodi - tabiatan yumorga moyilligi ijodiga katta ta`sir ko`rsatgan. Bu uning nafaqat hajviy asarlarida, balki jiddiy asarlarida ham yaqqol ko`rinadi, shuning uchun adib ijodidagi kulgi uning tabiatidan kelib chiqadigan, qon-qoniga singib ketgan xususiyat, qolaversa, uning fikrlashidagi, dunyokarashidagi o`ziga xoslikdan tug`ilgan.

Yozuvchi asarlarida yumor turli xil vazifalarni bajarib keladi: voqelikka munosabatni ifodalovchi vosita. U tarbiyalash quroli - qahramonni jozibali, asarni o`qimishli qiladi; insonni har xil illatlardan xalos qilishga ko`maklashadi, turli xil illatlar "kasali"ga duchor bo`lishning oldini oladi, yumor hissini o`stiradi va tarbiyalaydi. Shuning uchun Said Ahmad ijodida yumor jiddiy kuchga, katta ahamiyatga ega, uning asarlarida kulgining juda ko`p shakllari, usullari uchraydiki, bu hajvgga oid qarashlar, imkoniyatlar doirasining nechog`li keng ekanligini ko`rsatadi va hajv haqidagi yangi tadqiqotlarga yo`l ochib beradi.

Komik vaziyat bir qancha holatlar, aniqrog`i, joy,vaqt, sabab, maqsad bilan bog`liq holda ro`y beradi. Komik taassurotga erishish uchun ulardan foydalaniladi. Masalan, joy komizmi personajlarning xarakterini, undagi kamchiliklarni ko`rsatishga yordam beradi. Komik holatlarni vujudga keltiruvchi vositalarni uchga bo`lish mumkin: a) personajli komik holat yaratish; b) syujetli komik holat yaratish; v) uslub orqali komik holat yaratish.

Birinchi yo`l personajli komik holat yaratish juda oddiy bo`lib, unda obrazning

tashqi qiyofasidagi kulgili hollar, ko'pchilik oldida gapira olmay qolish hollari kulgi qo'zg'aydi.

Ikkinchi yo'l - syujetli komik holat yaratishda kulgili vaziyatlarda rol o'ynaydi. Bunda qahramonning g'ayritabiiy holga tushib qolishi, g'ayritabiiy harakatlari kulgi chiqaradi.

Uchinchi yo'l – uslub orqali komik holat yaratishda tasvirlanayotgan obrazning, hodisaning kamchiliklari turli so'z o'yinlari, muallif nutqi orqali ifodalanadi.

Demak, yumor hamsatira singari, o'zbek badiiy ijodiyotining xarakterli belgilaridan biridir. Yumor mazmuni, xarakteri, alohida belgilari bilan ajralib turadigan tasdiqlovchi hayotbaxsh mazmundor kulgidir.

Hajviy kulgi va emotsional tanqidning bir turi sanaluvchichinakam quvnoq, sho'x va mazmundor yumor bilan sug'orilgan asarlarni xalqimiz sevadi. Bunday asarlarni yaratish hayotiy zaruratdir.

1.2. Said Ahmad hajviyotiga ustozlarning ta'siri.

Adib hajviyotiga ustozlarining ta'siri katta bo'ldi, shuning uchun Said Ahmad oziqlangan chashmalardan yana biri uning ustozlaridir. Adib G'.G'ulomning xalqchil yumori, A.Qahhor haqiqiy satirasining eng yaxshi an'analari ruhida tarbiyalandi, ular kulgisidan ilhomlanish uning o'ziga xos takrorlanmas kulgi san'ati yaratishiga olib keldi.

Said Ahmad ijodiga, ayniqsa, G'.G'ulomning ta'siri kuchliligi bois ishda ular ijodidagi kulgi qiyosan tahlil qilindi. Chunki ularning xalqchil yumorida mushtarak tomonlar juda ko'p. Komik obrazlar mohiyati, kulgili vaziyatlar yaratish, hajviy portretlarni tasvirlash kabi jihatlari bilan muqoyasa qilindi, bunda har ikkala adibning mushtarak tomonlari va individual xususiyatlari namoyon bo'ladi. Buxususiyat ular asarlarining ichki jihatdan, emotsional yumoristik ohangga egaligi bilan bir-biriga yaqin o'xshashligida yaqqol ko'rinadi.

Bu ikkala yozuvchining har biri haqiqiy hajvchilarga xos xususiyatlarni yuksak darajada egallagan: ulkan badiiy talant, xalq qalbiga yaqin askiyalar, hozirjavoblik, xalqchilik G'.G'ulom bilan Said Ahmadni yaqinlashtiradi, ular kulgisiga emotsional buyoq beradi. Kulgini xalqning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yaratgan bu yozuvchilar kulgisidagi milliylik faqat til vositalaridagina emas, balki, eng avvalo, xalq hayotida, xarakterlarning yaratilishida ham, xatto kulgi haqidagi estetik karashlarida ham ko'zga tashlanadi. Ularning kulgusi insonni komillikka eltuvchi yo'lga olib chiquvchi, uning estetik tuyg'ularini tarbiyalovchi yumordir. Shu tufayli ularni "badiiy kulgining buyuklari" (Lunacharskiy) deb hisoblash mumkin.

Ikkala yozuvchi kulgisining takrorlanmasligini ko'rsatuvchi xususiyatlar quyidagilar: G'.G'ulom ijodida satira va yumor doimo birga keladi, hajv bilan hazil-mutoyiba birikib - bir butunlikni tashkil qiladi. Shum bolaning qiziqchilik qilib bajargan ishlari quvnoq kulgi uyg'otadi, ba'zi harakatlari bilan esa u personajlarni kulgiga duchor etadi (tandir ichidan turib "oshiqlar"ni fosh etishi), ayni chog'da faqat

bolaga qaratilgan sho`x, beg`ubor kulgi-yumor bola xarakteridagi etakchi xususiyatlarni ochib berish bilan uzviy bog`likdir.

Said Ahmad qahramonlarida ham shunday xususiyatlar bor. Biroq uning kulgisida humor etakchi o`ringa chiqadi va ko`p ma`nolilik kashf etadi. Buni "Cho`l hikoyalari"dagi obrazlar, voqealar tasvirida ko`rish mumkin.

G`.G`ulom kulgisi biroz qayg`uli, achchiq, satiraga yaqin. Said Ahmadda esa, ko`pincha, hayotbaxsh, quvnoq humor ustun. G`.G`ulom satira yaratishda foydalangan usullardan Said Ahmad humor yaratishda foydalanadi. Yumorga moyillik ustoziga nisbatan Said Ahmadning jiddiy asarlarida ham yarq etib turadi.

1.3. Askiya va latifalarning ta`siri.

Said Ahmad xalq askiyalariga, uning turli shakllariga katta e'tibor berganini bir qancha hikoyalari va "Ufq"da kulgiga qorilgan qator lavhalar yaqqol ko'rsatadi. Uning tasvirida askiya qahramonlariga nutqiy xarakteristika berishning muhim vositasiga aylandi. Bu esa o'z navbatida xarakterlarga harorat, voqealarga dramatism baxsh etgan. Mohir ijodkor askiya vositasida personajlar ma'naviy dunyosining nozik tebranishlarini, xarakterining iroda yo'nalishini ochadi, yashiringan xususiyatlarini yuzaga chiqaradi.

O'zbek xalqining azaldan askiya va uning payravlariga, lofga ishqibozligini chuqur his etgan Said Ahmad asarlarida ulardan mahorat bilan foydalanibgina qolmay, o'zi ham original askiya namunalarini yaratdi. Ular o'tkirligi, ixchamligi bilan xalq kulgisining "eng tayyori, eng nozigi, eng yoqimligi" (G'.G'ulom) hisoblangan askiyalarga o'xshab ketadi va kitobxonda quvonch hislarini uyg'otadi. Zararli, yomon narsalardan kulish, yaxshilikka intilishva shu asosda hayot go'zalliklarini qadrlash xislatlarini tarbiyalaydi.

Said Ahmadning askiyadan voqea-hodisalarni jonli, kulgili tasvirlashda, obraz qirralarini yoritishda hamda so'z o'yinlari bilan kulgi chiqarish maqsadida foydalanish, shu asosda yuzaga keltirilgan kulgi esa, adib niyatini o'quvchiga yetkazuvchi vositaga aylanishi misollar orqali batafsil ko'rsatiladi.

Buning ustiga yozuvchi bir lahzaning o'zida xalq ijodining askiya, qo'shiq, xalqona kulgili ibora, ertak janri unsurlari sintezlashgan usulini qo'llaydiki, natijada bo'layotgan voqealarning, qahramonlarning to'liq va jonli tasviri beriladi, ular yashaydigan, mehnat qiladigan milliy muhit tasvirining yorqinligiga erishiladi.

Askiya orqali chiqarilgan kulgining xarakteri har xil bo'lib, turlicha mazmun kasb etadi. Askiyaningimkoniyatlari keng,unda ham yumor, ham satira unsurlari bo'lishi mumkin.Bu askiyaning mazmuni, obykti, xarakteri, voqealarning borishi bilan o'zgarib turadigan xodisadir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Ufq"dagi askiyalar

ko‘proq yumor xarakteridaligi, qisqaligi, ixchamligi (qochiriq va chandish shakllarining ko‘p ishlatilishi) bilan xalq askiyalari (payrovlar, o‘xshatmalar)dan farq qiladi. Badiiy asarlarda ishlatilayotgan bunday askiyalarni adabiy askiya deb nomlash maqsadga muvofiqdir. Chunki askiyalar yozuvchilar tomonidan, ularning fantaziyasi, mehnatidan yuzaga kelar ekan, u endi yozma adabiyot mulkiga aylanadi. Shularni e‘tiborda tutib, bunday askiyalarini tabiatiga ko‘ra yumor va satira xarakteridagi adabiy askiyalargabo‘lish mumkin. Ko‘rinadiki, endi xalq askiyalari yozuvchilar ijodiy faoliyatida o‘zining adabiy askiya shaklidagi ko‘rinishi bilan ma‘naviy va badiiy hayotimizda tarbiya vositalaridan biri sifatida faol xizmat qila boshladi. Zotan, o‘zligimizga qaytayotgan hozirgi sharoitda ko‘p asrlik milliy va umumbashariy mohiyatga ega madaniy merosga tayanish zaruriyati har qachongidan ko‘ra ko‘proq sezilmoqda. Shuning uchun yozma adabiyotdagi askiyalar ana shunday zaruriyatning natijalaridan biri sifatida yuzaga keldi, deyish maqsadga muvofiqdir.

1.4. Lisoniy birliklardagi zidlanish orqali badiiylikning yuzaga kelishi.

O'zbek tilida ham sinxronik va diaxronik zidlanishni ko'rsatadigan so'zlar talaygina bo'lib, ular turli lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida yuzaga kelgan.

Sinxronik zidlanishning yuzaga kelishi, avvalo, so'zning ma'no taraqqiyoti bilan bog'liq. Masalan, hozirgi o'zbek tilidagi bosh so'zi semantik strukturasi kengayishi natijasida qarama-qarshi ma'nolarga ham ega bo'lgan. O'TILda uning yigirma ma'nosi berilib, shu ma'nolarning o'n beshinchisi sifatida «cho'ziq, davomli, bo'yli narsalar, joy, maydonlarning boshlanish joyi» va «shu kabi narsa va joylarning oxiri, etagi» ma'nosi qayd etilgan. Ana shu ma'nolardagi «boshlanishi» hamda «oxiri» semalari zidlanishni hosil qilgan. Qiyoslang: *U yo'l boshidayoq pand eganidan, muddaosiga eta olmaganidan alamda* (Tohir Malik. «Shaytanat»); *Qo'limdan kelsa, seni bu yo'ldan qaytarardim. Endi qaytarib bo'lmaydi. Yo'l boshiga borib qopsan. Yana ozroq yursang tubsiz jar yoqasidan chiqasan* (Said Ahmad. «Jimjitlik»).

Nutqiy zidlanish ham so'zning uzual va okkazional ma'nolari bilan biror narsa, belgi va harakat-holatni atab kelsa-da, unda ma'lum darajada subyektiv baho ham bo'ladi. Masalan, *bejirim* so'zi «bichimi ixcham, xushbichim, ko'rinishi yoqimli» hamda «bichimi beso'naqay, ko'rinishi yoqimsiz» ma'nolari bilan narsani nomlab kelishi mumkin. Ayni paytda, bu ma'nolarda, ayniqsa, uning okkazional ma'nosida salbiy baho yaqqol ko'rinadi. Ammo mazkur zidlikning nutqda yuzaga kelishi unga nutqiy zidlanish maqomini beradi. Qiyoslang: *Jahongir esa Siddiq oxun mahallaga osh bergan kuni xizmat qilib yurgan Yo'lchivoyga ko'zi tushib unda Xadichaning belgilarini ilg'adi: uzun kipriklar, bejirim burun, chap yuzida kulgich, tutashgan qoshlar...* (Tohir Malik. «So'nggi o'q»); *Askiyabozlarning hammasiga o'zi laqab qo'ygan, to'yu ma'raalarda, gapu gashtaklarda pand emay sovrin olgan askiyabozlardan edi. Ana endi*

«bejirim» kelinni ko‘rgan hazilvon oshnalari nima deyarkin? Cholni mana shu tashvish qiynardi (Said Ahmad. «Xanka va Tanka»).

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, masalan, sintaktik sathdagi ziddiyatlar ko‘proq shakliy-mazmuniy nomuvofiqliklar tarzida namoyon bo‘ladi, ya’ni tildagi aksariyat sodda va qo‘shma gaplar strukturasiga semantik-sintaktik asimmetriya xosdir.⁶ Tabiiyki, bunday asimmetriya tasodif yoki o‘z-o‘zidan kechadigan jarayon mahsuli emas, balki so‘zlovchi, nutq egasining kommunikativ-pragmatik maqsadi va nutqiy muloqot ehtiyojining talabi natijasi sifatida yuzaga kelgan va semantik-sintaktik strukturaning ham logik, ham uslubiy-ekspressiv jihatdan yanada takomili uchun xizmat qilgan.

Sintaktik sathda dialektik ziddiyatning namoyon bo‘lishi nuqtayi nazaridan yana, masalan, gapning kommunikativ tiplaridan biri bo‘lmish so‘roq gaplarning ritorik turiga diqqat qilib ko‘raylik. O‘zbek ilmiy tilshunosligining asoschisi prof. A.G‘ulomov ritorik so‘roq gaplarni quyidagicha tavsiflagan va bu tavsif normativ qoidaga aylangan: «Bunday gaplar javob talab qilmaydi. Bunda so‘roq yo‘li bilan tasdiq mazmuni beriladi (yashirin tasdiq). So‘roq gapning bu turi fikrni emotsional tusda, kuchli, ifodali, ta’sirli qilib beradi. Masalan: *Bolani kim sevmaydi?!* («hamma sevadi»). Yashirin inkor mazmuniga ega bo‘lgan so‘roq-inkor gaplar ritorik so‘roq gapning bir ko‘rinishidir. Masalan: *Bolani sevmaydigan odam bormi?* («yo‘q») *Ertalab gimnastika qilmay bo‘ladimi?* («bo‘lmaydi»)).⁷ Albatta, tilshunoslikning bugungi taraqqiyot darajasidan kelib chiqib aytilsa, ritorik so‘roq gaplar javobi til egasining ongida presuppozitsiya shaklida mavjud bo‘lgan gaplardir. O‘zbek tili sohibining ongida «Bolani hamma sevadi» tarzidagi presuppozitsiya barqaror bo‘lganligi uchungina *Bolani kim sevmaydi?* gapi ritorik so‘roq gapdir. Ammo, masalan, *Ilon go‘shini kim sevmaydi?* gapi ritorik bo‘la

⁶Қаранг: Маҳмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантак-синтактик асимметрия. — Тошкент; Ўқитувчи, 1984.

⁷Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 3-нашри. - Тошкент: Ўқитувчи, 1987. -Б.58-59.

olmaydi, chunki o‘zbek tili sohibining ongida «Ilon go‘shining hamma sevishi» haqidagi presuppozitsiya mavjud emas, mazkur gap boshqa mentalitet sohibining tilida ritorik so‘roq gap bo‘lishi mumkin. Yoki *Ertalab gimnastika qilmay bo‘ladimi?* gapi muntazam jismoniy mehnat bilan mashg‘ul bo‘lgan kishilar nutqida ritorik bo‘la olmasa-da, aqliy mehnat kishilari nutqida ritorik bo‘laverishi mumkin. Lekin biz ta’kidlamoqchi bo‘lgan narsa shuki, ritorik so‘roq gaplarda ziddiyat (tasdiq-inkor) borligi aniq, aytish joizki, ularda o‘ziga xos sintaktik (yoki ritorik) zidlanish mavjud (rus tilshunosligida «ritorik zidlanish» termini bilan sintaktik emas, balki leksik sathdagi zidlanish hodisasi nomlanadi. Bu hakda Yo.Odilov shunday yozadi: «Zidlanishga doir so‘nggi tadqiqotlarda ritorik zidlanish haqida ham gapirilmoqda. Bu terminni dastlab qo‘llagan va ayni masala yuzasidan tadqiqot olib borgan E.V.Markasovanning fikricha, ritorik zidlanish o‘zining alohida lingvistik manbaiga ega bo‘lib, hozirgi dunyo tillarining barchasi uchun xos va uning turlicha yuzaga kelish yo‘llari ham mavjud. Ulardan biri erkalash ma’nosidagi so‘zlarni nutqiy agressiya (do‘q-po‘pisa) bilan qarama-qarshi ma’noda qo‘llashdir. E.V.Markasova tomonidan ritorik zidlanish deb atalgan hodisa mohiyatan disfemik zidlanishga yaqin keladi».⁸ Ko‘rinib turganiday, leksik sathdagi zidlanishni ritorik deb nomlash uni boshqa turlari bilan qorishtirishga olib keladi).

Badiiy matnlardan olingan quyidagi misollarda ham o‘ziga xos ziddiyat, ya’ni sintaktik (ritorik) zidlanishni ko‘rish mumkin: *Terim mashinasida tovuqlar jo‘ja ochib yotibdi. Siz motorni chiqarib olibsiz. Shuncha pullik narsa uvol emasmi?* (Said Ahmad. «Bahor qizlari») - *Hozir erta turmasa bo‘ladimi?! - dedi ozgina kinoya bilan bola, keyin jiddiy ohangda qo‘shib qo‘ydi:* - *Nonga ketyapman. Vohli bormasam, etmay qoladi* (O‘.Umarbekov. «Kimning tashvishi yo‘q»). *Hammayoq sasib-bijg‘ib ketgan; mog‘or bosgan somsayu kabobga kim karaydi?!* (Erkin A‘zam. «Guli-guli»). *Shofyor olaylik deyishsa, qaysi shofyor*

⁸Одиллов Ё. Маъновий зидликнинг дисфемик тарзда берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. 2014. №3. - Б.69 - 70.

bunaqa shaloq mashinaga - bunaqa bezovta ishga ko'nadi? (Said Ahmad. «Tog' afsonasi») *Cho'lda bo'rilar bilan olishib yurgan it atirni bilarmidi? It dum hidlaydi* (Said Ahmad. «Bo'ri ovi»).

Leksik (va frazeologik) sathdagi zidlanish haqida gap ketganda bu hodisaning so'zning tuzilishiga ko'ra turlariga munosabatiga ham to'xtalish maqsadga muvofiq. So'zlarni tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft (va takroriy) kabi turlarga tasniflash tilshunoslikda an'anaga kirganligi ma'lum. Juft so'zlarning alohida bir tipi mavjudki, ular turkiy tillarning deyarli barchasida antonimik munosabatdagi birliklarni juftlashtirish natijasida, antonimik juftlik tarzida hosil bo'ladi⁹, ya'ni qarama-qarshi, zid ma'noli ikki so'z asosida bir so'z (*katta-kichik, uzun-qisqa, do'st-dushman* kabi) yuzaga keladi. Bir qarashda bunday juft so'zlarda zidlanish mavjudday tuyuladi. Ammo unday emas. Juft so'zlarning lisoniy-mantiqiy mohiyati va leksik birliklar orasidagi maqomiga batafsilroq to'xtalaylik. Avvalo, shuni aytib o'tish lozimki, so'zlarning bu tipi dunyo tillarining barchasida ham bir me'yorda uchraydigan hodisa emas. Taniqli turkiyshunos N.K.Dmitrievning ta'kidlashicha, rus va boshqa evropa tillarida juft so'zlar fragmentar xarakterga ega bo'lib, ularning qo'llanishi so'zlashuv doirasi bilangina chegaralanadi, turli til oilalariga mansub sharq tillarida esa manzara tamoman boshqacha, bu tillarda so'zlarning mazkur tipi mutlaqo tabiiy bo'lib, ularning qo'llanishi biron-bir uslub doirasi bilan cheklanmaydi.¹⁰ O'zbek tilida ham juft so'zlar juda keng tarqalgan bo'lib, tilimizning o'ziga xos betakror boyligi, emotsional-ekspressiv salmoq bilan yukungan birliklar sifatida barcha uslublarda faol qo'llanadi.

Taassuf bilan aytmoq lozimki, ayrim tadqiqotchilar bu holatni yanglish yoki shovinistik tarzda ham talqin qilganlar, go'yoki juft so'zlarning tilda paydo bo'lishi til egalari tafakkurining primitivligi, taraqqiyotning quyi bosqichida

⁹Каранг: Грамматика современного башкирского литературного языка. - М.: Наука, 1981. - С.110, 188; Грамматика современного якутского литературного языка. М.: Наука, 1982.-С.115, 168; Turkmen dilinin grammatikasy. Morfologiya. – Asgabat: Ruh, 1999. - С.38, 96.

¹⁰Дмитриев Н.К. Строй тюркских языков. - М.: Восточная литература, 1962. -С.133.

ekanligi bilan bog'liqmish. Bu tip so'zlarning yuzaga kelishi va o'ziga xos xususiyatlarini fin-ugor tillari misolida tipologik asosda atroflicha o'rgangan tadqiqotchilar, xususan, K.E.Maytinskaya mazkur fikrning tamoman asossizligini har jihatdan isbotlab berganlar.¹¹ Xolis mantiq shuni ko'rsatadiki, tilda juft so'zlarning yuzaga kelish imkoniyatining mavjudligi, aslida, shu til egalarining tafakkur rivoji, taxayyul tiniqligi va qamrov hajmi bepoyonligi, shuurdagi umumlashtirish va shu asosda obyektning mayda-chuydalarigacha qamragan holda ta'sirli ifoda yaratish salohiyatining muntazamligi isbotidir.

Quyidagi misollarda bunga (juft so'z va iboralarning ta'sir quvvatiga) yana bir bora ishonch hosil qilish mumkin: *Chiroq o'chdi. Biron soat vaqt o'tmay yo'g'on-ingichka xurрак tovushlari keldi...* (Said Ahmad. «Hindcha qo'shiq») *Tijoratxon esa baza yonboshidagi keldi-ketdi uchun maxsus qurilgan mehmonxonada vaqtincha istiqomat qilardi* (Said Ahmad. «G'ildirak»). *Boshqa uylar bir-biriga elka tirab, bir-biriga oftob tushirmaydigan qilib qurilgan. Ammo «oq uy» atrofi ochiq. Bahavo. Oldi gulzor, ikki yonida archayu sarvlar kishinyozin ko'm-ko'k bo'lib turadi* (Said Ahmad. «Oq uy»). *Er kurrasi teskarisiga aylanib, hammayoq **ostin-ustin** bo'ldi* (Said Ahmad. «Oq uy»). *Issik-sovug'ib yotish-turishi sening gardaningda. Buloqboshiliklar himmatli bo'ladi. Otalig'ingga ol. Bu bolada ish ko'p* (Said Ahmad. «Qirq besh kun»). *Azizxon ikki-uch kundayoq katta-kichikning og'ziga tushib qopdi* (Said Ahmad. «Qirq besh kun»). *Ayollarni hovli etagidagi xonaga, erkaklarni kiraverishdagi mehmonxonaga olib kirishdi. Dasturxonga quyuq-suyuq tortildi* (Said Ahmad. «Azroil o'tgan yo'llarda»). *Xuddi shuningdek, Ikromjon ham o'z siymosida xalqning eng yaxshi tomonlarini mujassam etgan odam sifatida ko'rinadi - u hayotning past-balandini ko'rgan, urushda qatnashgan, sinovlardan butun chiqqan, e'tiqodli, diyonatli, vijdonli inson* (O.Sharafiddinov. «Xalq sevgan adib»). *Men xayot-mamot jangiga ketyapman* (Said Ahmad. «Sarob»). *Umarali*

¹¹Бу ҳақда батафсил қаранг: Шиянова А.А. История изучения парных слов в финно-угорском языкознании // Вестник угроведения. №1 (8). 2012. - С.65.

g'irt mast, og'zidan bodi kirib, shodi chiqib xotinini so'kadi (Said Ahmad. «Lochin»). *Yigitlar frontda jon olib, jon berayotgan og'ir kunlar edi* (Said Ahmad. «To'lqinlar»).

Tabiiyki, juft so'zlar o'zbek tili taraqqiyotining bugunigagina xos hodisa emas, u qadimdan aynan zamonaviy tilimizdagi modellari shaklida qo'llangan. Qadimgi turkiy bitiklarda ham juft so'zlarning barcha ko'rinishlari mavjudligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan.¹²

Shunga qaramay, o'zbek tilshunosligida juft so'zlarning alohida, yaxlit bir birlik ekanligini shubha ostiga oladigan talqinlar ham yo'q emas. Masalan, akad. A.Hojiev «juft so'z yasalishi yangi so'z yasash emas» degan fikrni ilgari surgan. Olim yozadi: «Juft so'zlar sintaktik usul (kompozitsion usul) bilan so'z yasashning bir turi deb ko'rsatiladi. Lekin juft so'zlarda haqiqiy ma'nodagi so'z yasalishi (yangi so'z hosil bo'lishi) ko'rinmaydi, ya'ni ikki so'zni o'zaro juftlash (bog'lash) orqali yangi so'z hosil qilish hodisasi hozirgi o'zbek tilida yo'q. Juft so'zlarda uning komponentlari ko'pincha o'z ma'nosini saqlaydi. Masalan, *hol-ahvol, baxt-saodat, opa-singil, qozon-tovoq, aql-hush, katta-kichik, baland-past, oyoq-qo'l* kabilarda ikki so'zning juftlashishidan uchinchi bir so'z hosil bo'lgani yo'q».¹³ Ta'kidlash lozimki, agar chindan ham juft so'z tarkibidagi komponentlar o'z ma'nosini saqlaydigan bo'lsa, ularning juftlashuvi natijasida biror semantik (ekspressiv, logik, modal yoki yana boshqa qandaydir) farqlilik yoki leksik-formal o'zgachalik paydo bo'lmasa, so'zlarni juftlash tamoman ortiqcha, keraksiz bir yumushga aylanmaydimi? Holbuki, tildagi har qanday o'zgarish yoki harakat lisoniy ifodaga, kattadir-kichikdir, muayyan bir «yuk» qo'shmay qolmaydi. Demak, muayyan so'zlarning (antonimik, sinonimik yoki yana boshqa munosabatdagi) juftlashishi mutlaqo «ishlamaydigan», tamoman behuda jarayonlar emas, balki aniq bir «foydali koeffitsient»ni keltirib chiqaradigan tabiiy jarayonlardir. Bu «foydali koeffitsient» shundan iboratki, masalan, «ikki qarama-

¹²Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII- IXвв. -Л.: Наука, 1980.-С.99-101.

¹³Ҳожиёв А. Ўзбек тилида кўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. - Тошкент: ЎзФА, 1963.-Б.41-42.

qarshi, zid ma'noli so'zlarning o'zaro qo'shilishi ular ifodalagan xususiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi yangi tushunchani yaratadi»¹⁴, juft so'zlar «komponentlari ma'nolaridan ko'ra umumiyroq, kengroq ma'nolarni ifodalaydi»¹⁵, ayni paytda, ko'p hollarda emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltiradi. Bu esa har qanday tilning semantik-logik va kommunikativ-pragmatik quvvati uchun benihoya muhimdir.

Mazkur haqiqatni zakiy tilshunos sifatida ustoz A.Hojiev ham juda yaxshi anglaydi va mana bunday tabiiy savol qo'yadi: «...Juft so'zlar so'z birikmasi hisoblanmasa, bularda ikki so'zning bog'lanishidan yangi so'z hosil bo'lmasa, u holda juft so'zlarning tilda mavjudligini nima bilan izohlash mumkin va ahamiyati nimadan iborat?»

Bu haqli savolga muallifning o'zi benihoya asosli va batafsil javob beradi: «Juft so'z yasalihi so'z yasash hodisasi bo'la olmasligidan qat'iy nazar, ular tilda ortiqcha hodisa emas. O'zbek tilida juft so'zlarning mavjudligi shu tilning taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi belgilardan biri hisoblanadi. Chunki biror tilning taraqqiyot darajasi shu tilning lug'at sostavining qanchalik boyligi, unda yasovchi vositalarning qanchalik ko'pligi bilangina belgilanmaydi, balki fikr almashuvda turli ma'no va ottenkalarini, stilistik ottenkalarni to'la va ochiq ifodalaydigan vositalarga qanchalik boyligi bilan ham belgilanadi. Bunday vositalar turmushda fikr almashuvda bo'lgan talablar natijasida paydo bo'ladi. Lekin bunday vositalar barcha tillarda bir xil emas, ular turli tillarda turlicha bo'lishi mumkin. O'zbek tilidagi juft so'zlar ana shunday talab natijasida paydo bo'lgan va shu tilning taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi hodisalardan biri hisoblanadi. O'zbek tili taraqqiyoti ham buning yaqqol dalilidir. O'zbek tilida juft

¹⁴Дмитриев Н.К. Кўрсатилган асар. - Б.138.

¹⁵Майтинская К. Е. Об одной модели парных местоименных слов в финно-угорских языках // Сущность, развитие и функции языка. - М.: Наука, 1987. - С.146.

soʻzlar jamlik, umumlashtirish kabi maʼnolardan tashqari fikr almashuvda eng nozik maʼno ottenkalarini ifodalash uchun xizmat qiladi». ¹⁶

Aytish joizki, «turmushda fikr almashuvda boʻlgan talablar natijasida paydo boʻlgan» (yuzaga kelgan // yasalgan) juft soʻzlar jamlash, umumlashtirish maʼnolari bilan yukungan yangi tushunchalar bilan birga turli maʼno nozikliklari va maʼlum darajada zmotsional-ekspressiv boʻyoqlarni ham ifodalaydigan birliklar sifatida tilimizning leksik sathidagi boylikdir.

Birgina *issiq-sovuq* juft soʻzini olib koʻraylik. Bu soʻzning komponentlari boʻlmish antonimik munosabatdagi *issiq* va *sovuq* soʻzlari juft soʻz holidagi birlikda oʻz maʼnosini saqlagan deb aytib boʻlmaydi, yaʼni bu soʻz ham «baland haroratli», ham «past haroratli» maʼnolariga ega emas, agar shunday boʻlganda edi, bu juft soʻzni ikki qarama-qarshi maʼnoga ega enantiosemetik birlik sifatida baholashga toʻgʻri kelardi. Vaholanki, bunday talqin yanglish boʻlur edi. Mazkur juft soʻzning semantik strukturasida zidlanish yoʻq, ammo ziddiyat bor, yaʼni ikki zid maʼnoli soʻz juftlashib bir leksik birlikni yuzaga keltirar ekan, ayni shu maʼnolar ziddiyati asosida «-dan... -gacha» shaklidagi yaxlit bir maʼno, alohida bir tushuncha ifodalanadi, juft soʻz komponentlariaro semantik ziddiyat yaxlit soʻz semantikasini yanada yorqinlashtiradi, unga koʻlam va taʼsirchanlik baxsh etadi. «Oʻzbek tilining izohli lugʻati»da bu soʻzning asosiy maʼnosi «har xil darajadagi havo sharoiti» deb koʻrsatilgan. Bu juft soʻz alohida, yaxlit, mustaqil leksik birlik boʻlganligi uchun ham u tilning taraqqiyoti mobaynida bir qancha koʻchma maʼnolar kasb etgan. Izohli lugʻatda bu soʻzning quyidagi uchta koʻchma maʼnosi qayd qilingan: 1) «hayotning yaxshi-yomon, ogʻir-engil kunlari, har xil sharoitlari»; 2) «issiq va sovuq taomlar, kundalik eyiladigan, ichiladigan narsalar»; 3) «kishini goʻyo biror kimsaga «isitadigan» yoki undan «sovitadigan» amal, duo va sh.k. narsalar».

¹⁶Хожиев А. Кўрсатилган асар. - Б.44.

Qisqasi, komponentlari antonimik munosabatdagi soʻzlardan tarkib topgan juft soʻzlarda garchi shaklan zidlanish borday koʻrinsa ham, ularning semantik strukturasiga zidlanish deyarli xos emas (bu fikr, albatta, faqat lisoniy-uzual zidlanishga daxldor, ayrim hollarda kinoyaviy qoʻllash natijasida juft soʻzlarda ham nutqiy - okkazional zidlanish voqelanishi mumkin). Ammo juft soʻzlarning yaxlit semantik strukturasini antonimik komponentlardagi ziddiyat asosida shakllanganligi tufayli, ular ifodalagan tushuncha hajman keng, umumlashtiruvchilik xususiyatiga ega boʻladi, shu bois ularda koʻp hollarda taʼsirchanlik ortiq.

II.Bob. Said Ahmad hajviyotining lisoniy omillari.

2.1. Yozuvchining hajv yaratish usullari.

"Tilni faqat va faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy ruhiy zamindan mosuvo bo'lgan sun'iy tilga (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli "til"ga baravarlalashtirishdan boshqa narsa emas... Holbuki, odamlar til vositasida tuyg'u va kechinmalari; quvonch va qayg'ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarni ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko'zda tutmaydi"¹⁷.

Haqiqatan, til insoniy his-tuyg'ularni ifodalashning eng samarali usullaridan biridir. U shunday xususiyatga ega bo'lganligi uchun ham o'quvchining tuyg'ularini "boshqara oladi" uning qalbida turli kechinmalar, hissiyotlarni paydo qiladi.

Xususan, badiiy matn "Insonni ruhan to'ldirish, yig'latish, kuldirish, xayolot olamiga etaklash; o'ylarni yoqib, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan bo'ladi"¹⁸.

Murakkab til birligi bo'lgan so'z o'zining barcha ichki imkoniyatlarini ma'lum bir matnda (ayniqsa, badiiy matnda) namoyon qiladi. So'z tegishli matnlarda nafaqat o'z ma'nosida, balki o'z ma'nosiga qarama-qarshi bo'lgan ma'nolarni ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Bu matndan ko'zlangan maqsad bilan bog'liq. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun borliqda mavjud predmetlarning o'xshash belgilari asosida birining nomi bilan ikkinchisini nomlash, ma'no ko'chirish,

¹⁷Юлдашев М.М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри ... дисс. - Тошкент, 2009. - Б. 104.

¹⁸Юлдашев М.М. Қўрсатилган диссертация. - Б. 99.

o'zgarishi hodisalaridan, ya'ni nutq ta'sirchanligini ta'minlovchi nutqning ifoda-tasvir vositasidan foydalaniladi. Nutqda eng ko'p qo'llanadigan ifoda - tasvir vositalaridan biri troplardir. Trop badiiy ifodalilikni oshirish uchun ko'chma ma'noda qo'llangan nutq figurasi, kinoya, ramz bilan qo'llangan so'z iboradir. Fikrni troplar yordamida ifodalash badiiy matnning emotsional ekspressiv hamda estetik ta'sirchanligini orttiradi. Badiiy nutqqa alohida bo'yoq, joziba bag'ishlaydi. Shuning uchun R.Qo'ng'urov troplarni rang - barang bo'yoqlar bilan chizilgan rasmga o'xshatadi. Voqelikni va unga bo'lgan munosabatni maxsus tasvirlash uchun so'zlarni o'ziga xos matnda qo'llash, ularga yangi ma'nolar yuklash, so'zlar o'rtasidagi ma'no ko'chishidan foydalanish, qiyoslash munosabati troplarni yuzaga keltiradi. Troplar inson tafakkurining qiyoslash jarayonida tug'iladi. Qiyoslashning hosilasi sifatida yaratiladi. Bunda so'zlarning o'xshash va farqlovchi semalariga asoslanib, obrazli ifodalar hosil qilinadi. Shuning uchun troplar, nutqiy obraz yaratish, ekspressiv-emotsional his-tuyg'ular ifodlashning maxsus usullaridir. Troplarning ishlatilishi badiiy nutqni yangi ma'no ottenkali birikmalar, yangi ottenkali fikrlar bilan boyitadi, tasvirlanayotgan narsaning yozuvchi yoki so'zlovchi xohlagan tomonidan oydinroq qilib ifodalashda, voqea – hodisaning baholash momentini hosil qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Ular badiiy matnda berilgan voqea – hodisani individuallashtirish va baholashda yordam beradi. So'z yoki birikmalarda bo'ladigan ma'no ko'chishi orqali troplar hosil bo'lar ekan, shunga ko'ra ularning metafora, metonimiya, sinekdoxa, epited, o'xshatish, allegoriya, giperbola, mubolag'a, kichraytirish, kinoya kabi bir necha turlarini sanab o'tish mumkin. Jumladan, kinoya trop sifatida maqsadli tag ma'noli matn hosil qilishda muhim o'rin tutib, badiiy nutqqa alohida ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Quyida biz kinoya uslubining lisoniy birliklar yordamida hosil bo'lishini komik yo'nalishidagi badiiy matn misolida ko'rib chiqamiz. Kinoya hajviy yo'nalishdagi asarlarda o'ziga xos kulgili matn hosil qiluvchi uslub bo'lib, u matn mazmunini tashkil qilgan til birliklarining to'g'ri ma'nolariga butunlay

qarama - qarshi qo'yilgan yashirin ma'nolar ifodasi bilan yuzaga keladi. Bunda yozuvchi yoki so'zlovchi bamaylixotir, jiddiy gapiradiyu, ammo so'zlarni o'z asl ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda qo'llab, biror kishi, uning qiligi yoki hodisa ustidan kesatib, masxaraomuz kuladi. Demak, kinoyaning yuzaga kelishi so'zlovchining subyektiv munosabati bilan bog'liq. Chunki u orqali tinglovchi yoki boshqaga haddan ziyod kuchli ta'sir o'tkaziladi. Kinoya so'zlovchi yoki yozuvchi subyektiv munosabati ifodasi sifatida konkret lisoniy birliklar asosida vujudga keladi. Bu uslubda so'z belgisining asimmetrik tomonlariga asoslanib, ko'p ma'noli so'zlarning semantik tuzilishiga kiruvchi ma'nolarga asoslanib so'z o'yini qilmay, balki muayyan matn mazmunidan kelib chiqib, so'zga boshqa bir ma'no yuklanadi. Shuning uchun kinoya uslubini hosil qiladigan so'zlarning ma'lum bir matnda ega bo'lgan bunday ma'nolarini okkazional ma'no deb baho berish mumkin. Kinoya uslubiga asoslanib qurilgan badiiy so'zning bunday qo'shimcha ma'nosi kulgini yuzaga keltiradi. Matnda okkazional ma'no kasb etib, kinoyaviy kulgi hosil qiladigan so'z maqsadi tag ma'noli matn yuzaga kelishi uchun xizmat qiladi. So'z ma'nosining o'zgarishi fikrning ifoda maqsadi bilan bog'liq ekan, demak, kinoya bevosita maqsadni tag ma'noli matnda hosil bo'ladi. Kinoya zamirida, o'z navbatida, tanqidiy kulgi yotadi. Kinoya, yuqorida aytib o'tilganidek, konkret lisoniy birliklar va ularga matnda yuklangan qo'shimcha ma'nolar asosida hosil bo'ladi. Jumladan, so'zlarning matndagi ularning semantik tarkibiga kirmaydigan qarama-qarshi ma'nolaridan foydalanish, frazeologik iboratlarni tag ma'nolari asosida kinoyali qo'llash, so'zlarning matndagi semantik jihatdan noodatiy bog'lanishlari (oksyumoron), so'zlarni metaforik usulda qo'llash, dublet so'zlarni maqsadli ravishda bir matn ichida ketma-ket qo'llash (pleonazm) orqali ularning uslubiy bo'yoqqa ega bo'lishi, atoqli ot va maxsus nomlarga kinoyaviy komik ma'no yuklash usulari, so'zlarni mubolag'a ko'chma ma'noda qo'llash kinoya hosil qiluvchi vositalardir.

Yozuvchi asarlarida hajv yaratuvchi usullar quyidagilar deb hisoblanadi:

- soʻzlarni koʻchma maʼnoda qoʻllash orqali yumor hosil qilish;
- har xil qoʻpol soʻzlarni ishlatish orqali kulgi hosil qilish;
- nomlar va laqablar orqali kulgi chiqarish;
- shevaga xos soʻzlarni qoʻllash orqali yumor yaratish;
- boshqa tildan soʻz olish, chet soʻzlarni oʻz tiliga moslashtirish orqali hajv uygʻotish;
- har xil kasbga oid soʻzlarni keltirish bilan yumor hosil qilish;
- ortiqcha takalluflar orqali yumor kulgisi qoʻzgʻash;
- oʻxshatishlar orqali kulgi chiqarish;
- oddiy xalqona ifodalardagi yumorni ajratib olish;
- kulgi uygʻotuvchi alohida yumoristik soʻzlar;
- asarda shaxslar portreti qirralarini chizish, qiyoslash orqali kulgiga yoʻl ochish.

Hajv yaratuvchi bu vositalar Said Ahmad yumorining tabiatini, mazmunini aniqlashi, toʻgʻri tushunishga yordam berish ishda tahlil jarayonida misollar orqali asoslab berilgan.

Said Ahmad ijodida boshqa tillarga munosabatdan kulgi chiqarish usuli uch yoʻl bilan amalga oshiriladi.

1. Boshqa tildagi soʻzni toʻgʻridan-toʻgʻri keltirish yoʻli bilan.
2. Soʻzlarni oʻz tiliga moslashtirish yoʻli bilan. Birinchi usulda yumoristik ohang saqlansa, ikkinchi usulda ohang kulgiga aylantiriladi.
3. Soʻzlarni buzib talaffuz qilish orqali ham kulgi chiqariladi.

Said Ahmad ijodida kulgi uygʻotuvchi alohida soʻzlar anchagina uchraydi, ularni matn bilan qoʻshib oʻqilsa ham kulgi uygʻotadi, garchi unchalik darajada koʻrinmasa-da, alohida olib qaralsa ham, hajvchi qalamining uchidan yumor toʻkilib turgani uchun ular kulgili boʻlib koʻrinadi: "...Toʻlanboy yoʻq demay pildirab ketaverardi"(18-b.) "Pildirab" ketayotgan odamni tasavvur qilib koʻring, koptok pildiraydi, umuman, yumaloq sharga oʻxshagan barcha narsalar pildirashi mumkin,

biroq odamning pildirab ketaverishi tasavvurga sig'ishi qiying'ayriodatiy, nomuvofiq hodisa. Shuning uchun mana shu nomuvoflik yumorni keltirib chiqaradi.

Til birliklari ma'lum bir paradigmalarda, o'zaro oppozitiv holda yashaydi. Nutq birliklarida o'zaro oppozitiv til birliklaridan biri konkret material shakl va sharoitda, turli kombinasiyalarda yuzaga chiqadi, reallashadi.

Nutq jarayonini so'zlar va ularning bog'lanishi, munosabati tashkil qilar ekan, so'z va u ifodalagan tushuncha, ma'no, nomlash xususiyati, umuman, so'zning butun mohiyati kishining diqqat markazida turadi hamda ana shu xususiyatlarga asoslanib, voqelikni va unga bo'lgan munosabatni ifodalash uchun nutqda so'zlarni tanlab ishlatiladi.

So'z ifodalagan tushuncha, uning semantik predmeti asosida so'zlar ma'lum leksik-semantik guruhlariga bo'linadi. Nutqdagi so'zlar voqelikni nomlashda o'zi mansub bo'lgan leksik-semantik guruhdagi so'zlar bilangina munosabatga kirishadi. Demak, so'zlarning nutq jarayonida o'zaro semantik aloqadorligi, bog'lana olishlarini ular mansub bo'lgan leksik-semantik guruhga mansub so'zlar faqat inson va unga xos xususiyatlarni ifodalovchi so'zlar bilan munosabatga kirishadi. Nutqda so'zlardagi bunday bog'lanishlarning buzilishi, ya'ni ma'lum leksik-semantik guruhga kiruvchi so'zlarni ular xos bo'lmagan leksik-semantik guruhdagi so'zlar bilan bog'lash yoki ulardan biri ifodalaydigan predmetni ikkinchisiga mansub so'zlar bilan nomlash nutqning emotsional-ekspressivligi, tinglovchiga ta'sir qilish orqali ma'lum munosabat ifodalash va shu bilan birga kulgi hosil qilish uchun xizmat qiladi. Jumladan, inson tushunchasini ifodalaydigan so'zni parrandaga nisbatan qo'llash nutqda kulgi qo'zg'atadi.

- *Kimning xo'rozi bu? – dedi choyshab yopingan kishi uyquli tovushda. Pastdan javob qilishdi:*

- *Qo'shni, sal kengroq bo'ling. Mudragan bu mikrorayonga shu shu xo'roz jon kirgizdi-ku. Xshisi, katakni ochib yuboring, shundoq sersavlat kuyov o'z oyog'i bilan kelganiga sevinmaysizmi. Tovuqning egasi pastga tushib katakni*

ochib yubordi. Xo`roz gerdaygancha to`rtta tovuqni ergashtirib vagonetka-uy orqasiga o`tib ketdi. To`dadan bir yigit chiqib, tovuq egasini bag`riga bosdi.

*- Qani birtanishib qo`yaylik, **qudajon!***

(S.Ahmad. Tonggi tovushlar. “Xandon pista”, 46-b.)

Matnda qarindoshlikni ifodalovchi “quyov”, “qudajon” so`zlarining parrandalarga nisbatan ishlatilishi kulgi hosil qiladi. Jumladan, “kuyov” so`zi nutqiy jarayonda “xo`roz” so`zi bilan o`ziga xos oksyumoron holatda bog`lanadi. Chunki “kuyov”, “xo`roz” tushunchalarining nisbatlanishini tasavvur qilish qiyin. Matnda esa “kuyov” so`zi ifodalaydigan ma`no metaforik ma`noda “xo`roz” so`ziga yuklanadi. Bir-biriga nisbatan qo`llana olmaydigan bunday tushunchalarning semantik jihatdan bog`lanishi, boshqa oksyumoronlarda bo`lgani kabi, ularning semantik tarkibida mavjud bo`lgan yashirin umumiy ma`no hisobiga yuz beradi. “Kuyov” so`zi “odam”, “erkak”, “farzand”, “kimningdir turmush o`rtog`i”, “qiziga uylangan”, (ota-onaga nisbatan), “endi uylanadigan” kabi semalarga ega. “Xo`roz” so`zida esa “parranda”, “tovuqning erkagi” semalari mavjud. Ko`rinadiki, “kuyov” va “xo`roz” so`zlarida farqlovchi semalar bo`lgani holda har ikkisi uchun umumiy bo`lgan “erkak” semasi bor. Binobarin, bog`lana olmaydigan “kuyov” va “xo`roz” tushunchalarining bog`lanishlarini ular uchun umumiy “erkak” semasi ta`minlaydi. Natijada, “Xo`roz-kuyov” yashirin hukmidan hosil bo`lgan tasavvur kulgi qo`zg`aydi. Shuningdek, “kuyov” so`zining aniqlovchisi “sersavlat” so`zi “xo`roz” so`zining ma`nosini ta`kidlaydi hamda kulgini yanada bo`rttiradi. Demak, “sersavlat kuyov” birikmasida “xo`roz” ma`nosi presuppozisiyada ifodalangan bo`lib, u nutq jarayoni yoki matnda anglashiladi. Qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi “quda” so`zi ham o`zi uchun xos bo`lmagan noodatiy voqelikni nomlaydi. Odatda, “kelin-kuyov” ota-onalarining bir-biriga nisbatan munosabatlari “quda” tushunchasi bilan nomlanadi. Ana shunday munosabatni ifodalovchi so`z matnda tovuq va xo`roz egalari o`rtasidagi munosabatni ifodalovchi sifatida qo`llangan. Natijada,

voqelikni nomlashda notabiiylik vujudga kelgan. Bunday notabiiylik voqelikni nomlashda, o'z navbatida, kulgini hosil qilgan. Quyidagi matnda inson tushunchasini bildiruvchi perifrazaning hayvonga nisbatan ishlatilishi hamda qarindoshlikni ifodalovchi nomning hayvon tushunchasi bilan bog'lanishi orqali hosil qilingan nutq jarayonidagi mot qilish usuli kulgi qo'zg'aydi.

Demak, inson tushunchasi bilan bog'liq qarindosh-urug'chilik, yaqinlikni ifodalovchi so'zlarni hayvonga nisbatan qo'llash orqali kulgili mot qilish usuli, asosan, latifa janrida (dialogik nutq) (so'zlashuv nutqida ham) uchraydi hamda so'z ma'nosini ko'chirish orqali so'zlovchining salbiy munosabati aks etadi.

Demak, inson tushunchasi bilan bog'lanadigan so'zlarni hayvonlarga nisbatan bog'lab qo'llanganda:

1) so'zlar ifodalagan tushunchalar o'ziga xos oksyumoron holatda bog'lanadi;

2) bunda so'zlar perifrazalar bilan ifodalanganda, kulgi va nutqning ta'sirchanligi kuchli bo'ladi;

3) so'z ma'nolarini ko'chirishga asoslanadi;

4) kulgi hosil bo'lishida so'zlashuvchilar o'rtasidagi shartnomaviy munosabat asosida tushuniluvchi nutq situatsiyasiga bog'liq presuppozitsiyalar muhim rol o'ynaydi;

5) shuningdek, ko'pincha, so'zlashuvchilarning salbiy munosabatlari ifodalanadi;

6) bu usul bilan kulgi hosil bo'lish ko'proq latifalarda uchrab, so'zlovchilarning so'zlar orqali mot qilishiga asoslanadi.

2.2. Frazeologiyaning hajv yaratishdagi o`rni.

Yozuvchi kulgisining xalqchil bo'lishida jonli xalq tilidagi milliylik, ifodaviylik, "olmosday o'tkir va sof iboralar P.Qodirov muhim rol o'ynadi. Buni, ayniqsa, tasvirda xalq tilida uchraydigan ideomatik iboralar, frazeologik birikmalardan foydalanishdako'rish mumkin.

Hajviy ijodda "ezopcha usulda yozish" degan ibora bor. Bunda muallifning o'zi fikr-mulohazalarini to'g'ridan-to'g'ri aytmay, balki ularni kinoya bilan qochirib yoki majoziy uslubda ifodalaydi. A.Qodiriy, Fitrat, A.Qahhor kabi adiblar bu usuldan foydalanganlar. Said Ahmad esa bu usulda ham yangilikka intildi: uning tilida kinoya, qochiriqdan ko'ra samimiy kulgi ohangi birinchi o'rinda turadi. Uning mayin kulgi aralashgan nutqi asarning g'oyasini, obrazlarning, qirralarini, voqea-hodisaga, muayyan shaxsga munosabatni ochishga xizmat qiladi. Unda simpatiya uyg'otadi.

Said Ahmad insonni bir-biri ustidan kuladigan, kuldirishga qaratilgan yuzaki kulgini emas, balki insonga muhabbatdantug'iladigan betakror kulgini yaratdi. Shu tufayli adib asarlaridagi juda ko'p unsurlar hajv hosil qilishga xizmat qiladi va bu unsurlar yozuvchi uslubini belgilovchi bosh xususiyatlardan biriga aylanadi. Uning asarlarida nomlar, laqablar, so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash, o'xshatishlar kabi turli-tuman vositalar kulgi uyg'otishga yordam beradi. Boshqa biror yozuvchi asarida bu vositalar, umuman, hajv uyg'otmasligi mumkin, biroq tug'ma yumorist Said Ahmad barcha unsurlarni hajv uyg'otish vositalariga aylantiradi.

Yumoristik asarlar nafaqat til vositalari bilan yaratiladi, balki ularda komizm bilan tasvirlangan vaziyatlar, voqelar va xarakterlarda badiiy mazmun va ta'sirchanlik kuchliroq ifodalanadi. Bu usul yumoristik bo'lmagan, biroq yumorga boy asarlarda ham qo'l keladiki, Said Ahmad ijodi buning yorqin namunasidir.

Til birligi bo'lgan frazeologik birikmalarning ham til taraqqiyotida o'ziga xos o'rni bor. Shuning uchun ham tilshunos olim I.V. Arnold har qanday tilning

taraqqiy qilib boyib borishi faqat yangi soʻzlar hosil boʻlishi bilangina emas, balki shu bilan birga turgʻun birikmalarning ortib borishi hisobiga ham yuz berishini aytib oʻtgan edi. Shuning uchun frazeologik birikmalarning hosil boʻlishi, leksik-grammatik, semantik tabiati, xarakterli xususiyatlari rus tilshunosligida ham birmuncha chuqur oʻrganilgan. Xususan, V.V.Vinogradov tildagi frazeologizm masalasiga alohida eʼtibor berdi. F.F.Fortunatov, A.A.Shaxmatov, A.M.Peshkovskiy, A.A. Potebnyalarning ishlarida ham turgʻun birikmalar haqida fikr bildiriladi. Oʻzbek tilshunoslari SH.Rahmatullayev, A.P.Hojiyev, I.Q.Qoʻchqortoyev, A.Mamatov va boshqalar tomonidan oʻrganilgan. Shuningdek, Sh.Rahmatullayev va K.M. Hakimovlarning maxsus ishlari frazeologik birikmalarning xususiyatlariga bagʻishlangan. Odatda, soʻzlarning erkin bogʻlanmalarida soʻzlar maʼno mustaqilligini saqlagan holda nutq jarayonida birikib, soʻz birikmalari va gaplarni hosil qiladi. Shuning uchun bunday bogʻlanmalar maʼlum tushuncha yoki fikr anglatish talabi bilan muayyan tilning grammatik qonun-qoidalari asosida bevosita nutqda hosil boʻlganligi uchun butun holatda saqlanmaydi. Turgʻun birikmalar, barqaror soʻz birikmalar kabi nomlar bilan atalgan birliklarni tashkil qilgan soʻzlarning maʼno va grammatik munosabatida mustaqillik boʻlmaydi. Ular yaxlit maʼno anglatib, bir soʻzga teng kelishi mumkin. Shuning uchun bunday birikmalar nutq jarayonida tuzilmay, balki nutqqacha til sistemasida bir butun holda mavjud boʻladi. Demak, frazeologik birikmalar tuzilishi jihatdan soʻz birikmasi yoki gapga teng keladigan, mazmun tomonidan bir butun, umumlashgan maʼno anglatadigan, nutq jarayonida hosil qilinmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan til birligi hisoblanadi. Binobarin, uni bir butun holga keltirgan hodisa tarkibidagi soʻzlarning bir maʼno markaziga kelib birlashishidir. Frazeologik birikmalarning kishi xotirasida yaxshi saqlanishining sababi ham ularni tashkil qilgan soʻzlarning maʼno mustaqilligini saqlamaganligi, yaxlit holda koʻchma maʼnoga ega boʻlishidir. Demak, frazeologik birikmalar voqelikni nomlash bilangina chegaralanib qolmasdan, shu

bilan birga ko`chma ma'no, obrazlilik ham ifodalaydi. Shuning uchun frazeologik birikmalar badiiy matn, umuman nutqning ifodaliligi, obrazlilik, emotsionalligi, ta'sirchanligini oshiradi. Zero, nutqqa emotsional-ekspressivlik bag'ishlaydi. Shu sababli A.Abdullayev ularni: "Frazeologizmlar nominativ ma'no va qo'shimcha ottenkalarining ajralmas birligidan iborat bo'lgan maxsus nutqiy figuralardir", - deb ta'riflaydi. Frazeologik birikmalar nutq jarayonida ma'lum uslubiy maqsadlarni ko'zlab ishlatiladi. Binobarin, boshqa birliklarda bo'lgani kabi frazeologizmlarda ham umumiy leksik ma'no bilan birga uslubiy baho ham bo'lib, voqelikka nisbatan munosabat ifodalangan. Frazeologik birikmalarning ko'pida uslubiy baho uning mazmun planida doimiy tarkibiy qism bo'lib qatnashadi. Shuningdek, erkin birikmalar yoki so'zlarda ifodalangan sub'yektiv munosabat, uslubiy bahoga nisbatan frazeologik birikmalar orqali ifodalangan uslubiy baho, munosabat darajasi ortiq bo'ladi, binobarin, ta'sirchanlik yuqori bo'ladi.

Lug'aviy ma'no taraqqiyoti frazeologizmlarga ham xos bo'lganligi uchun ularda ham polisemiya, omonimiya hodisalari mavjud va frazeologik birikmalarning ma'nolari ham leksemalarning ma'nolari kabi nutq jarayoni (kontekst)da aniqlanadi. Shuningdek, ko'chma ma'noli frazeologizmlarning ma'no taraqqiyoti metafora yo'li bilan ma'no ko'chishiga asoslanadi.

To'g'ri ma'noli til birliklari yoki birikmalarga nisbatan ko'chma ma'noli frazeologik birikmalarda emotsional-ekspressivlik, obrazlilik xususiyati yuqori darajada ifodalanar ekan, kulgi hosil bo'lishida frazeologik birikmalarning ham o'z o'rnini bor. Frazeologik birikmalar yordamida kulgi hosil bo'lishi asosan, dialogik nutqda ularning to'g'ri va ko'chma ma'nolarining to'qnashtirilishidan yuzaga kelgan so'z o'yiniga asoslanadi.

Frazeologizmlashgan ko'chma ma'noli "mushuk tekinga oftobga chiqmaydi" xalq iborasining nutqiy jarayonda ishora qilgan tag ma'nosi va u orqali ifodalangan munosabat ham kulgini hosil qiladi.

*Idora boshlig'i ertalab ishga **mushugini** ham olib keladigan odat chiqardi...*

- *Ho`jayin, tashqarida havo yaxshi, **oftob charaqlab** turibdi. Mushukni qo`yib yuboring, **oftobda bir yayrasin.***

Ho`jayin shunaqa gapni bir haftadan beri kutardi. U salmoqlanib dedi:

- *Bu **mushuk tekinga oftobga chiqmaydi.***

Shu-shu bo`ldi-yu, xodimlar oyiga ikki martadan mushukni oftobga olib chiqib, o`ynatib keladigan bo`lishdi. Mushukning oftobga chiqishi unchalik qimmat emas, bir kishiga ellik so`mdan xolos.

(S.Ahmad. Oftobga chiqqan mushuk. Xandon pista, 10-bet)

Matnda “mushuk tekinga oftobga chiqmaydi” gapining nutqiy situatsiyaga bog`liq to`g`ri ma`nolari orqali “tekinga mushuk oftobga chiqmaydi” ko`chma ma`noli frazeologik iboraning ma`nosiga ishora qilinadi hamda unda presuppozitsiyali axborot ifodalanadi. Bunday presuppozitsiyali axborot esa nutqiy situatsiya va so`zlashuvchilarning o`zaro munosabatida anglashiladi. Demak, bunda situatsiyaning roli shu qadar kattaki, u so`zlovchiga muayyan predmet, hodisaga ishora qilish bilangina cheklanish imkonini beradi. Ana shu situatsiyada oydinlashadigan “mushuk tekinga oftobga chiqmaydi” gapining presuppozitsiyali axboroti kulgi uchun asos bo`ladi.

Demak, frazeologik birikmalar kulgi hosil qiluvchi lisoniy vosita sifatida, asosan, dialogik nutqda so`zlashuvchilarning o`zaro munosabatlari asosida ularning to`g`ri va ko`chma ma`nolari yordamida hosil qilingan so`z o`yiniga asoslanadi.

Badiiy matnlarda qo`llangan frazeologizmlardagi zidlanishlar ham uzual va okkazional ma`nolarning ishtirokiga ko`ra lisoniy va nutqiy zidlanishlarga ajraladi. Lisoniy frazeologik zidlanish iboraning nutqqa qadar ibora semantik strukturasida mavjud bo`lgan zid ma`nolar asosida shakllanadi. Ma`noviy zidlikning nutqqa qadar mavjudligi uning uzual ekanligini ko`rsatadi. Masalan, *hunar ko`rsatmoq* iborasining «mahoratini namoyish etib hamma qoyil qoladigan ish qilmoq» va «bo`lmag`ur, kishining ko`ngli qoladigan ish qilmoq, nojo`ya qiliq

qilmoq» ma'nolari o'zbek tilida so'zlashuvchilarning barchasi uchun tayyor holda mavjud. Shu sababli mazkur ma'nolar o'rtasidagi zidlikni lisoniy zidlanish deyish mumkin. Qiyoslang: *Mantini tugib bo'ldingmi? Ha, durust. Hunaringni bir ko'rsatasan, Sanginova* (Said Ahmad. «G'ildirak»); - *Kecha nima hunar ko'rsatdingiz? - dedi chimirilib. Endi og'iz ochmoqchi edim, jerkib berdi.*

Hozirgi o'zbek tilidagi *ish ko'rsatmoq* iborasining semantik strukturasida ham *hunar ko'rsatmoq* iborasiga yaqin ma'nodagi zidlanish mavjud. Mazkur frazeologik birlikdagi «namunali, qoyil qoladigan ish qilmoq» va «yoqimsiz (ko'ngilsiz) ish qilmoq», «nojo'ya qiliq qilmoq» uzual ma'nolar o'rtasidagi zidlik ham lisoniy zidlanishdir. Qiyoslang: *Duchor kelganini ko'kka otarman, ish ko'rsatib yorim olib ketarman* («Alpomish»); *Hali bu taraflarda ham ish ko'rsatib yuribman degin. Nima qilasan o'zingga dushman orttirib. Bir kun payingni qirqadi ular* (Said Ahmad. «Qirq besh kun»). Shuni ham aytish lozimki, mazkur ma'nolarda ma'lum darajada ijobiy va salbiylik ham bor. Ammo bu mazkur ma'nolardagi lisoniy zidlanishka soya solmaydi, balki yanada aniq ko'rsatishga xizmat qiladi.

Ko'p hollarda ibora nutqiy zidlanish kasb etar ekan, yuqori ekspressivlikka ega bo'ladi. Frazeologizmlarning tabiatidan kelib chiqib mazkur ekspressivlikning ikki ko'rinishini ajratish mumkin. Bir holatda zidlanish ekspressivlik uzual bo'lib, shu birlikning semantik strukturasida nutqqa qadar mavjud va, ayonki, kontekstga bog'liq bo'lmaydi. Ikkinchi holatda esa ekspressivlik okkazional bo'lib, muayyan nutqiy vaziyatda yuzaga keladi hamda shu kontekstniig o'zigagina xosdir. Mohiyatan zidlanish iboradagi uzual ekspressivlik zidlanish bo'lmagan iboradagi ekspressivlik bilan teng. Biroq nutqiy zidlanish bo'lgan iboradagi ekspressivlik zidlanish bo'lmagan iboradagi ekspressivlikdan ekspressivlik darajasining yuqoriligi bilan farqlanadi. Bunga sabab nutqiy zidlanishda uni voqelantiradigan ironiyaning ishtirok etishidir. Ana shu jihat so'zlovchi nutqidagi modallikni kuchaytirib emotsionallikni yuzaga keltiradi. Masalan, *yaxshi ko'rmoq*

frazologizmining «biror narsa yoki kishini yoqtirmoq» ma'nosiga zid bo'lgan «biror kishi yoki narsani yomon ko'rmoq», «yoqtirmaslik» ma'nosida ham yuqori ekspressivlik mavjud. Qiyoslang: *Zuhurxon akani juda yaxshi ko'raman. To'g'riso'z, halol, birovni yalab-yulqashni bilmaydi* (Said Ahmad. «Umrim bayoni»); *Ostonahatlamoq* iborasining «biron joyga kirmoq» va «biron joydan chiqmoq» (O'TIL) ma'nolari o'rtasida sinxronik zidlanish kuzatiladi. Qiyoslang: *U uyiga yaqinlashganda eshigi oldida u yoqdan-bu yoqqa shoshib yurayotgan odamlarni ko'rib yuragi hapriqib ketdi. Qadamini tezlatdi. Eshik oldida turganlar unga qulluq bo'lsin, sevinib qoldingizmi, qariganingizda dilingizga yoruglik tushgani muborak bo'lsin deyishardi. Kampir hajga ketayotganlarga pensiyadan yiqqan pullarini «hoji badal» uchun berib yuborgan edi. Haj qabul bo'ldi degan xushxabar kelgan bo'lsa kerak, o'zingga shukr, Allohim, deb ostona hatladi* (Said Ahmad. «Qorako'z Majnun»); *Birovga so'zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o'tirib qoldi* (Said Ahmad. «Qorako'z Majnun»).

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, hozirgi o'zbek tilida bir qator sinxron zidlanish frazeologizmlar bor. Mazkur frazeologizmlar ba'zilarining semantik strukturasida faqat zidlanish ma'nolar bo'lsa, ayrimlarida zidlanish ma'nolar bilan birga boshqa ma'nolar ham mavjud. Masalan, yuqorida tahlilga tortilgan *ostona hatlamoq* frazeologizmining semantik strukturasida zidlanish ma'nolardangina iborat.

Oq kiymoq frazeologizmi ham «azadan chiqish» va «azaga kirish» (O'TIL) ma'nolari bilan yuqoridagi tip zidlanishni namoyon etadi. Aytish lozimki, mazkur zidlanish iboraning adabiy til va shevadagi ma'nolari o'rtasida yuzaga kelgan. Shunga qaramay, bu ma'noviy zidlikning o'zaro to'liq va mosligi, bir mavzuga oidligi, to'g'ridan-to'g'ri zidlanishi kabi jihatlariga soya solmaydi. *Oq kiymoq* frazeologizmining adabiy tilda «azadan chiqmoq», Buxoro va boshqa ba'zi shevalarda esa «azaga kirmoq» ma'nolari bor. Qiyoslang: - *Xudoyo xudovando,*

shu odam xonavayron bo'lsin. Shu eshikdan lopillab tobutlar chiqsin. Shu uydagilar oq kiymasin, qora kiyimdan boshi chiqmasin (Said Ahmad. «Jimjitlik»).

Frazeologik iboralarni to'g'ri ma'nolarida qo'llash ham kinoyaviy kulgili maqsadli tag ma'noli matnni hosil qiladi. Tuzilish jihatdan so'z birikmasi yoki gapga teng, mazmuniy jihatdan yaxlit, umumlashgan ma'no anglatuvchi, nutq jarayoniga tayyor holda kiritiluvchi, ko'chma ma'noga ega lug'aviy birlik bo'lgan frazeologizmlar odatda, badiiy nutqqa, o'ziga xos obrazlilik, tasviriylik va kolorit bag'ishlaydi. Ana shunday ko'chma ma'noli lug'aviy birlikni to'g'ri ma'nolarni bilan kulgini maqsad qilib tuzilgan matn mazmuniga singdirilish, yuqorida ta'qidlab o'tilgandek, kinoyaviy kulgi yaratadi.

Oblast rasmiy zayavkalar qabul qilinadi. Bu go'shtlar qurulish minstrligiga qarashli obyektlarga sotiladi. Tuya go'shti yeyishni xohlagan qurulish rahbarlaridan rasmiy zayavkalar qabul qilinadi.(S.Ahmad. Yulduz. Qatrxandalar. Toshkent. 1986, 135-bet)

Yuqoridagi matnda muallif obyektiv reallikka muvofiq kelmaydigan voqea-hodisani jiddiy bayon qiladi, lekin aslida uning zamirida tanqidiy subyektiv munosabat ifodalangan kinoya yotadi. O'z navbatida, matnda kinoya uslubini hosil qilgan konkret lisoniy birliklar mavjud.

“Tuya go'shti yegan” ko'chma ma'noli, obrazli frazeologik iborasi “sudralgan”, “cho'zilib ketgan” ma'nolariga ega bo'lib, biror ish yoki voqea-hodisaga nisbatan, munosabat ifodasi sifatida keng qo'llaniladi. Bu ibora salbiy sub'yektiv baho munosabatini ifodalab, ko'proq qurilishlarga nisbatan ishlatiladi. “Tuya go'shti yegan qurulish” iborasi ijtimoiy hayotda mavjud salbiy hodisani obrazli ifodalash ehtiyojidan kelib chiqqan. “Tuya go'shti yegan qurulish” tushunchasi ko'pchilikka ma'lum tushuncha bo'lib, mazkur tushuncha yuqoridagi matn mazmuniga presuppozisiya shaklida singdiriladi. Bu presuppozisiyaga matndagi “tuya go'shti”, “qurulish ministriligiga qarashli obyektlar” birikmalarni ishora qiladi. Demak, “tuya go'shti yegan” iborasining ma'nosida matnda o'rinli

foydalanish va uni matn tarkibida presuppozisiya shaklida berilishi muallif tanqidiy sub'yektiv munosabatini ifodalagan kinoya uslubini hosil qilgan. “Tuya go`shti yegan” Iborasining ko`chma ma'nosiga ishora qiluvchi ushbu iborani tashkil qilgan so`zlarning voqelikka nomuvofiq keluvchi to`g`ri ma'nolarida qo`llanishi natijasida hosil bo`lgan o`ziga xos so`z o`yinidan maqsadli tag ma'noli kinoyaviy kulgi yaratiladi.

Demak, frazelogik ibora ma'nosidan foydalanib, ayni frazelogik ibora qismlarini to`g`ri (o`z) ma'nolari bilan bilan matn tuzilishiga kiritiladi va u orqali muallif salbiy sub'yektiv munosabatining ifodalanishi kinoyaga asoslangan kulgini yuzaga keltiradi. Bunda, kinoya uslubining hosil bo`lishida presuppozisiyaning ham o`ziga xos o`rni bor. Kinoya uslubiga asoslanib qurilgan matnlarda konkret so`zlarga yuklangan qarama – qarshi ma'nolar natijasida yuzaga kelgan kinoya uslubini bu uslubning sodda shakli sifatida baholash mumkin. Bunda, demak, matnning umumiy mazmunidan konkret so`zlarning bevosita kinoyali ekanligini anglash mumkin. Kinoya uslubining murakkab ko`rinishlarida esa kinoya uslubini vujudga keltirgan so`zlarning asl ma'nolariga qarama – qarshi bo`lgan ma'nolar konkret so`z yoki birikmalarga to`g`ridan – to`g`ri yuklatilmaydi. Balki butun matnni o`qish jarayonida o`quvchi ongida kinoyaviy iz qoldirgan so`zlar semantikasi, ya'ni kinoyaviy okkazional ma'no gammasi yuzaga kelishi natijasida kinoyali kulgi hosil bo`ladi.

2.3. Jinslararo nutq farqlanishi.

Ma'lumki, ayol va erkak jinsiga mansub kishilar o`ziga xos belgilari bilan birbirlaridan farq qiladilar. Bu farqlanuvchi belgilar quyidagicha bo`lishi mumkin:

1. Liboslardagi farq.
2. Xatti-harakatlardagi farq.
3. Yurishdagi farq.
4. Mimikalaridagi farq. Ayniqsa, ayollarning so`zlash jarayonidagi mimikalari o`ziga xos: qoshlarni uchirish, lab burish, ko`z suzish va boshqalar.
5. So`zlash manerasi, ohang va talaffuzdagi farq.
6. So`z qo`llashdagi, murojaat qilish shakllaridagi farqlar.

Ana shu tashqi belgilarga ko`ra ayol va erkak (kishi) jinsi vakillari birbirlaridan ajralib turadilar. Agar mazkur farqlovchi belgilardan birortasi jins vakillari o`rtasida almashib qolsa, notabiiylik vujudga keladi va bu holat kulgiga sabab bo`ladi. Masalan, hajviy yoki yumoristik asarlar sahnalashtirilganda, shu kabi hodisalarni kuzatamiz. Ko`pincha, erkaklar ayollarga xos liboslar bilan chiqib, ayollarga xos xatti-harakat, so`zlar bilan tomoshabinni kuldiradi.

Biz kulgi hosil bo`lishida jinslararo farqlanishning lisoniy xususiyatlariga to`xtalamiz. Chunki ayol va erkaklar o`rtasidagi, ularning nutqida uchrovchi so`zlar va ohangdagi farqlar diqqatga sazovordir. Ayniqsa, ayollarga xos murojaat qilish shakllari, emosional munosabat ifodalovchi “o`rgilay”, “aylanay”, “girgitton”, “girgitton bo`lay”, “jonim tasadduq”, “qoqindiq”, “voy o`lay” kabi so`z va iboralar hamda turli qarg`ishni ifodalovchi so`z-iboralar mavjudki, ular nutq jarayonida o`ziga xos ohangga ega bo`lib, ayollarning xarakter-xususiyatlarini ko`rsatib turadi. Ayollar nutqida qo`llanuvchi emosional munosabat ifodalovchi so`zlar talaffuzda alohida erkalovchi mayin ohangga ega bo`ladi.

Hayotda ana shunday xotin-qizlar nutqida uchrovchi soʻzlarni ishlatuvchi, ularga xos ohangda soʻzlovchi kishilar ham uchrab turadi hamda bu hodisa oʻz navbatida, salbiy baholanib, ayni paytdi, kulgi qoʻzgʻalishiga sabab boʻladi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, hajviy asarlarda ham yozuvchi personajning xarakter-xususiyatini ochib berish, qolaversa, kulgi yaratish maqsadida mazkur hodisadan foydalanadi.

Ergash. Qizlar brigadasida erkak kishining ishlashi juda qiyin boʻlsa kerak?

*Hasan. Nimasini aytasiz, **oʻrgilay**. Qiyinligiyam bor, osonligi ham bor. Osonligini aytsam shuki, **qoqindiq**, erkaklar brigadasida tushlik bir soat. Xotinlar brigadasida ikki soat. Bir soat ovqatga, bir soat bola emizishga... Ha, aytgancha, nimasi koʻp ularning, tugʻishi koʻp. Beshik toʻyiga ham meni chaqiraverishadi. Men ham bir kiyim shtapelni qoʻltiqlab **suzilib** kirib boraveraman...*

Ergash. Bu tomonlari zoʻr ekan. Haqiqatdan sizga maza ekan.

*Hasan. **Voy oʻrgilay sizdan**, bu tomoni yaxshi boʻlgani bilan nax yomon tomonlari borki odam bolasi chidamaydi.*

(S.Ahmad. “Ilgʻor tabelchi”, Saylanma, 3-jild. T.1982, 460-462-betlar).

Ushbu matnda erkalash yoki hurmat maʼnolarini ifodalovchi murojaat shakllari boʻlgan “oʻrgilay”, “qoqindiq”, “voy oʻrgilay sizdan” kabi birliklar nobatitilikni qujudga keltirib, kulgi qoʻzgʻaydi. Chunki bu shakllar xotin-qizlar nutqi uchun xos boʻlib, matnda mazkur birliklar qatnashgan nutq egasi esa erkak kishi (Hasan)dir. Ayni paytda, bu birliklar personajning xarakter-xususiyatiga ishora qilib turadi. Shuningdek, personaj nutqidagi boshqa birliklarda ifodalangan axborotlar orqali yuqorida koʻrsatilgan emosional munosabat ifodalovchi birliklar ishora qilgan personajning xarakter-xususiyati toʻldirilib, yanada yaxshiroq namoyon boʻladi. Shu bilan birga “oʻrgilay”, “qoqindiq”, “voy oʻrgilay sizdan” birliklarining oʻzidanoq ayollarga xos ohang ham sezilib turadi. Natijada oʻquvchida personajning nutqi orqali uning ayollarga xos xarakter-xususiyati haqida tasavvur hosil boʻlib, bu tasavvur unda tanqidiy kulgi uygʻotadi.

Demak, jinslararo farq qiluvchi soʻzlarning, umuman, nutqning oʻrin almashib qolishi nutqiy notabiiylikni yuzaga keltiradi va bu hodisa salbiy bahoga ega boʻlgan kulgini hosil qiladi. Shuningdek, jinslararo nutq farqlanishini hosil qiluvchi soʻzlar muayyan nutqiy (matn) sharoit doirasidagina kulgi qoʻzgʻaydi.

2.4. Mubolag`ali matnda komiklik.

Mubolag`a badiiy tasvir vositasi sifatida badiiy adabiyotda o`ziga xos tasviriylilik, ifodalilik yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kulgi hosil qilishda mubolag`aning ham alohida o`rni bor. Bunda bir voqea-hodisa, predmet va unga xos belgini bo`rttirib tasvirlash orqali hosil qilingan tasavvur o`quvchi yoki tinglovchida kulgi uyg`otadi. Mubolag`a mahovat qilish, bo`rttirib, orttirib ko`rsatish ma'nolarini bildirib, ikki xil ko`rinishga ega. Birinchi ko`rinishda narsa-predmet yoki uning belgisi haddan ziyod kattalashtirilsa, ikkinchi ko`rinishda haddan ziyod kichraytirib tasvirlanadi. So`zlarni mubolag`ali qo`llash turli adabiyotlarda turlicha nomlar bilan, jumladan, mubolag`a, giperbola, litota, tablig`, ig`roq, gulluv, kichraytirish kabi nomlar bilan talqin qilinadi.

Mubolag`a so`z vositasida narsa-predmet yoki uning biror belgisini bo`rttirib tasvirlash ekan, demak, bunday tasvir so`zlarning ma'no ko`chishiga asoslanadi. Mubolag`ining so`z ma'nosining ko`chishigi asoslanishi uning troplar guruhiga mansubligini ko`rsatsa ham, u tropning boshqa ko`rinishlarida ko`chma ma'no ma'lum bir belgi asosida o`xshatish, taqqoslash, voqea-hodisa yoki predmetlar o`rtasidagi bog`liqlikka ko`ra bo`lsa, mubolag`a esa to`g`ri ma'noda tushunmaslikni talab etadi. Tropning bu turida so`zlarni mubolag`ali ko`chma ma'noda qo`llash orqali o`quvchida tasvirlanayotgan voqea-hodisa yoki predmet, uning biror muhim tomoni haqida yorqin tasavvur hosil qilish, kuchli taassurot qoldirish, unda nutq predmetiga nisbatan munosabat hosil qilish, nutqning maqsadidan kelib chiqib, kulgi qo`zg`atish nazarda tutiladi. Mubolag`ali tasvir shu yo`l bilan nutqning emosional-ekspressivligini ta'minlaydi. Chunki so`zlarning har qanday ko`chma ma'noda qo`llanishi hamda so`z ma'nosidagi belgi-darajaning kuchliligi so`zning ifoda xususiyatlarini kengaytirib, fikrning emosional-ta'sirchanligini oshiradi. A.I.Yefimov ta'kidlab o`tganidek, qayerda qo`shimcha ma'no ottenkasi paydo bo`lsa, shu yerdan ekspressivlik boshlanadi.

Soʻzlarning mubolagʻali koʻchma ma'noga ega boʻlishi ma'lum kontekst (leksik qurshov)da boshqa soʻzlar bilan munosabatdorligini amalga oshadi. Shuning uchun mubolagʻa ham nutqda yuz beruvchi binobarin, nutqiy hodisa hisoblanadi. Demak, mubolagʻa yozuvchi yoki soʻzlovchining ma'lum maqsadi asosida nutqda hosil qilinadi.

Mubolagʻaning oʻziga xos tomoni shundaki, mubolagʻali tasvirga ega boʻlgan nutqda ifodalangan axborot ob'yektiv reallikka muvofiq kelmaydi. Binobarin, ana shu nomuvofiqlik kulgi uchun asos boʻladi. Demak, mubolagʻali nutqning asosiy maqsadi axborot berish emas, balki asosan, tinglovchi yoki oʻquvchiga ta'sir qilishdir.

Mubolagʻa oʻxshatish zaminida yuzaga keladi. Biroq oʻxshatishdan farqli tomonlari bor. Chunki oʻxshatishda qiyoslanayotgan ma'nolar, voqea-hodisa, predmetlarni tasavvur qilish mumkin va oʻxshatish toʻgʻri ma'nolarga asoslanadi. Mubolagʻada esa ana shunday belgi haddan ziyod kuchaytirib tasvirlanadi. Natijada u ob'yektiv reallikdan uzilib qoladi.

Yozuvchilar hajviy asarlarda mubolagʻali oʻxshatishlar orqali personaj portretini chizish bilan uning xarakter-xususiyatiga ishora qiladilar, ayni paytda kulgi yaratadilar.

Mahallamizda Mamajon loʻmboz degan devdek kishi boʻlardi. Boʻyi unchalik daroz emasdi-ku, ammo eniga qarichlab oʻlchasa, ikki gazdan oshiq chiqardi. Oʻtirganda dumbasi quymoqqa oʻxshab yoyilib ketib uch gazga doira yasardi. Qorni shu qadar osilib ketganki, oʻtirganda yerga yozsa bir koʻrpachalik joyga nari ketib qolardi. Kindigi qichiganda qoʻli yetmay, otashkurak bilan qashlardi.

(S.Ahmad. Napoleon Mamajanov. "Xandon pista", 24-bet)

Matnda oʻxshash belgilari bir-biridan uzoq boʻlgan soʻzlar yordamida personajning mubolagʻali kulgili portreti tasvirlangan. Bunda mubolagʻa "eniga", "ikki gazdan oshiq", "dumba", "quymoq", "uch gaz", "doira", "qorin", "ikki koʻrpachalik joy", "kindik", "otashkurak" soʻzlari orqali yuzaga kelgan.

Demak, bunday mubolag`ali tasvir, o`xshatish bir tomondan obrazni gavdalandirsa, ikkinchi tomondan emosional tuyg`ularga ta'sir qilib, kulgi qo`zg`aydi.

Mubolag`a vositasida kulgi yuzaga kelishi ko`proq loflarda uchraydi. Lofso`zi ham haqiqatga to`g`ri kelmaydigan, haddan tashqari bo`rttirilgan gap, yolg`on gap, mubolag`a ma'nolariga ega.

Lof mubolag`a asosiga qurilgan xalq og`zaki ijodi turlaridan bo`lib, satira va yumorning alohida ko`rinishi sifatida namoyon bo`ladi. Shuningdek, u o`z syujeti, kompozitsiyasi, aytilish uslubi jihatidan askiya janriga mansub bo`lib, epik asarlar turkumiga kiradi.

Loflar ko`pincha dialogik nutq shaklida bo`lib, so`zlovchilar bir ob'yektga asoslanib, ikki xil mubolag`ali tasvir orqali kulgi hosil qiladilar. Bunda ikkinchi so`zlovchi nutqidagi mubolag`ali so`z ma'nosi birinchi so`zlovchi qo`llangan so`zning mubolag`ali ma'nosidan ortiq darajada ifodalanganligi natijasida hosil bo`lgan o`ziga xos mot qilish usuli kulgi qo`zg`aydi.

Bir lofchi ikkinchi lofchiga o`g`lini maqtadi:

- Mening o`g`lim uch yosh bo`lishiga qaramay, **bo`yi** chunonam o`sib ketdiki, **yulduzlarni** qo`li bilan ushlab tekshiryapti.

Ikkinchi lofchi dedi:

- O`g`lingiz yulduzlarni tekshirayotganda boshiga **biror narsa tegibdimi?**

Birinchi lofchi dolutni aytayotgan bo`lsa kerak deb o`yladi va javob berdi: - Ha.

Shunda ikkinchi lofchi dedi:

- O`sha **tekkan narsa** o`g`lim kiygan **to`nning peshi** bo`ladi.

Ushbu matnda “o`g`il” so`zining bo`y belgisi asosida mubolag`a hosil qilingan. Mubolag`a birinchi so`zlovchi nutqida “bo`y” va “yulduz” so`zlari orqali, ikkinchi so`zlovchi nutqida “to`n” va “pesh” so`zlari orqali yuzaga kelgan. Shuningdek, ikkinchi so`zlovchi nutqidagi mubolag`a kulgini yuzaga keltiradi.

Bunda ikkinchi soʻzlovchi nutqida mubolagʻa ob'yekti boʻlgan boʻy belgisining haddan ziyod boʻrttirilishi presuppozisiya shaklida berilgan. Ya'ni, birinchi soʻzlovchining nutqiy ta'siri natijasida hosil boʻlgan ikkinchi soʻzlovchi nutqidagi “Sening oʻgʻlingni boʻyi yulduzlarga yetgan boʻlsa, mening oʻgʻlimning boʻyi undan ham baland” axboroti mubolagʻa asosida presuppozisiyali ifodalangan. Bunda presuppozisiyasga “toʻn” va “pesh” soʻzlari ishora qiladi. Ana shu mubolagʻa asosidagi presuppozisiya ifodasi bilan birinchi soʻzlovchini mot qilish kulgi qoʻzgʻalishiga asos boʻladi.

Demak, mubolagʻa soʻz ma'nosining tasavvur asosida kuchaytirib tasvirlangan qiyoslanishi natijasida yuzaga keladi hamda soʻzlarni nutqda mubolagʻali qoʻllashdan maqsad tinglovchi yoki oʻquvchiga nutq predmeti orqali ta'sir qilish, shuningdek, kulgi qoʻzgʻatishdir. Shu bilan birga koʻpincha, mubolagʻa asosidagi presuppozisiya kulgi uchun asos boʻladi. Bunday hodisa, koʻrib oʻtganimizdek, nutq jarayonida hosil boʻladi.

2.5. Kinoyali hajvning lisoniy xususiyatlari.

Kinoyaga ishora qiluvchi bir necha vositalar matnda birgalikda qo'llanib, murakkab shakldagi kinoya uslubini hosil qilishi mumkin. Bunda ham kinoya ma'nosi, asosan, matnning umumiy mazmunida ifodalangan muallif yoki so'zlovchining sub'yektiv munosabatida o'z aksini topadi. Kinoya ma'nosiga ega bo'lgan leksik birliklar biri ikkinchisining ma'nosini to'ldirib, kinoyaviy kulgini kuchaytira boradi. Bunday holda til birliklaridan mubolag'ali foydalanish ham kulgi kuchini oshiradi.

Bosh nevropotolog prof.Mannopov bemor N.ga bir necha savol bilan murojaat qildi:

- Keyingi oylarda qanday dorilar iste'mol qildingiz?
- Hech qanday.
- Bu yil qaysi kurortda bo'ldingiz?
- Uydan tashqariga chiqmadim.
- Uyingizda nima bilan shug'ullandingiz?
- K.Doniyorning "Shiltasini" o'qidim.
- O'qish jarayonida o'zingizni qandoq sezdiniz?
- Uyqum kelaverdi. Tinmay igna tiqib uyqumni qochirdim.

Nevropotologlar uzoq mulohazalardan keyin bemor N.igna bilan davolash usulidan beixtiyor foydalangan, o'zi sezmagan holda badiiy adabiyot yordamida kasallikdan mutlaqo qutulgan degan xulosaga keldilar. Prof. Mannopov vrachlarga xos "husnixat" bilan bloknotiga lotin alifbosida "Shilta" deb yozib qo'ydi. Yaqinda "Medisina nashriyoti" "Shilta"ni har sahifasiga igna qadab bosmadan chiqardi. Roman qo'sh pechatli maxsus resept bilan aptekalarda sotilmoqda. (S.Ahmad, Toshkent, Yulduz. 1986 yil, 132-133-betlar).

Yuqoridagi matnda kinoya uslubini yuzaga keltirgan turli lisoniy vositalar birgalikda umumiy kinoyaviy mazmunga ega bo'lgan matnni hosil qilgan. Bunda

kinoyaviy kulgi soʻzlarning matnda ega boʻlgan qoʻshimcha maʼnolari hisobiga yuzaga keladi.

Maʼlumki, tilshunoslar soʻzda atamalilik, nomlash (denotativ) va qoʻshimcha ekspressiv-emosional maʼno mavjudligini aytib oʻtadilar.¹⁹ Soʻzning qoʻshimcha maʼnolari tilshunoslikda konnotativ maʼno, stilistik boʻyoq, ekspressiv maʼno oʻttenkasi, qoʻshimcha maʼno kabi atamalar bilan nomlanadi.²⁰ Turlicha nomlar bilan ataluvchi bunday maʼnolar emosional-ekspressivlik, nutqiy taʼsirchanlik va maʼlum maqsad uchun xizmat qilib, asosan, mazkur maʼnoga ega boʻlgan soʻz xos boʻlgan matnda roʻyobga chiqadi. Binobarin, kulgili matnlarning hosil boʻlishi ham soʻzlovchi yoki yozuvchining hisiyoti va munosabati ifodalanib turadigan soʻzning qoʻshimcha konnotativ maʼnolari natijasidir. Konnotativ maʼno yozuvchi va soʻzlovchining munosabatini ifodalovchi soʻz semantik strukturasining bir qismidir. Soʻzlovchining ichki kechinmalarini ifodalovchi va tinglovchining hislariga taʼsir qiluvchi narsa ham ana shunda.²¹

Yuqoridagi matnda ham soʻzlarning konnotativ maʼnolari, yaʼni salbiy subʼyektiv maʼno ifodasi kinoyaviy kulgini yuzaga keltiradi.

- Uyingizda nima bilan shugʻullandingiz?
- K.Doniyorning “Shilta”sini oʻqidim.

Matnning ushbu dialogidagi “Shilta” soʻzi butun kinoyaviy kulgili matn mazmuniga ishora qilib turadi. Bu soʻzga matnda alohida urgʻu berilib, u nutqiy reaksiyaga kirishish uchun asosiy vosita boʻlib xizmat qiladi va uning maʼnosi matnning mazmunida oydinlashadi. Demak, maʼlum bir soʻz butun dialog jarayonini belgilab beradi.²² “Shilta” soʻzi koʻchma maʼnoda, “iflos”, “balchiq”, “odam jirkanadigan”, “hech narsaga arzimaydigan” salbiy subʼyektiv baho maʼnosiga ega boʻlib, shu maʼnoda ogʻzaki nutqqa “birovning shiltasiga toymoq”

¹⁹Кодухов В.И. Введение в языкознание. М., 1979 г. Ст. 195. Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1969, 46-б.

²⁰Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. Тошкент, Фан, 1982, 10-б.

²¹Қиличев Э. Ўша асар, 7-б.

²²Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. Тошкент, Фан, 1974, 33-б.

frazologik iborasi ham ishlatiladi. Muallif asarni “Shilta” deb nomlab, shu nom orqali yuqorida ko`rsatilgan ma'nolarga ishora qiladi, hamda so`zlovchi nutqi orqali nutq predmeti (K.Doniyorov asari)ga tanqidiy kinoyaviy ekspressiv munosabatni ifodalaydi. Natijada bunday munosabat va salbiy sub'yektiv baho ma'nosini ifodalagan “Shilta” so`zi kulgini hosil qiladi. Bunda asarning uning nomi bilan atalishi, ya'ni metonimiya hodisasining alohida o`rni bor. Odatda, metonimiyalar nutqiy holatda ellipsis natijasida sodir bo`ladi. Metonimiya yo`li bilan hosil bo`lgan ko`chma ma'noning sub'yektiv munosabatga ega bo`lishi eksplisit ifodalangan qism denotati tarkibida qanday sub'yektiv baho ma'nosi borligiga bog`liq. Shunga ko`ra metonimiya yo`li bilan hosil qilingan ko`chimlarda sub'yektiv munosabat ijobiy yoki salbiy bo`lishi mumkin. Yuqoridagi matnda metonimiyaga uchragan “Shilta” so`zining semantik tuzilishida va so`z nomlangan predmetga nisbatan salbiy baho elementi mavjud. Shuning uchun metonimiya qo`llangan “Shilta” so`zi salbiy sub'yektiv munosabat ifodalab, kinoyaviy kulgini yanada kuchaytiradi, ya'ni kinoya uslubi va metonimiya uyg`unlashib ketadi.

Metonimiya bu o`rinda emosional-ekspressivlik va nutqiy ta'sirchanlikni oshirish uchun xizmat qiladi. “Shilta” so`zida ifodalangan kinoyaviy ma'no matndagi keyingi javob replika – “Uyqum kelaveradi”, “Tinmay igna tiqib uyqumni qochirdim” jumllarini presuppozisiyalari bilan yanada oydinlashadi. Bu jumlar bir butun holda keyingi reallikka nomuvofiq keluvchi, muallifning kinoyaviy maqsadini ifodalagan “badiiy adabiyot yordamida kasallikdan mutlaqo qutulgan” jumlasining tug`ilishiga turtki beradi. Mazkur jumladagi badiiy adabiyot birikmasi alohida urg`u olib metonimik qo`llangan “Shilta” so`zining kinoyaviy konnotativ ma'nosini yana ham kuchaytiradi. Demak, kinoyaviy mazmunga ega bo`lgan matnlarda kinoya ma'nosini ifodalagan so`zlar bir-birining ma'nosini oydinlashtirib, kinoyaviy ma'nolar silsilasini tashkil qiladi. B.Umurqulov aytganidek, badiiy nutqda so`z faqat fikr ifodalovchi, obraz

yaratuvchi vosita emas, nutq tarkibidagi boshqa soʻzlarga ta'sir etuvchi vosita hamdir.²³

“Prof. Mannopov vrachlarga xos “husnixat” bilan bloknotiga “Shilta” deb yozib qoʻydi” jumlasida esa “husnixat” soʻzi matnda oʻz ma'nosiga butunlay qarama-qarshi ma'noda kinoyali qoʻllangan. “Husnixat” soʻzining kinoya ma'nosiga vrachlarga xos birikmasining presuppozitsiyasi ishora qilib turadi.

Matnning soʻnggi mubolagʻali qoʻllangan mazmunan ob'yektiv voqealikka mos kelmaydigan jumalari sub'yektiv munosabat ifodasi boʻlgan umumiy kinoya ma'nosini va kinoyaviy kulgini kulminasion nuqtaga olib chiqadi. Bunda “har sahifasiga igna qadab”, “qoʻsh pechatli maxsus resept bilan” jumalari kinoyaviy ma'noni ta'kidlaydi. Demak, yuqoridagi matnda kinoya uslubi oʻziga xos murakkab shaklda, kinoyali ma'noga ega jumalarning biri-ikkinchisining kinoyaviy ma'nosini keltirib chiqaruvchi ketma-ket bogʻlanishi natijasida hosil boʻlgan.

Asartaroshlikning oʻqish zalida sira oʻqilmagan kitoblar koʻrgazmasi ochildi. Koʻrgazma zali yaxshi jihozlangan. Stendlarda bosilganiga oʻn besh-yigirma yil boʻlgan, lekin biron odam varaqlamagan, hatto qoʻliga ushlab koʻrmagan kitoblar qoʻyilgan. Bu kitoblarga qoʻl tegizish ta'qiqlanadi. Bu nodir kitoblar yoniga avtorning rangli suratini ham osib qoʻyish planlashtirilgan. Koʻrgazmaga marhamat, aziz kitobxonalar.

(S. Ahmad, Yulduz. Koʻrgazma. Toshkent, 1986. 194-bet)

Yuqoridagi matnda “sira oʻqilmagan”, “koʻrgazma” “biror odam varaqlamagan” “hatto qoʻliga ushlab koʻrmagan”, “kitobga qoʻl tegizish taqiqlanadi”, “nodir kitoblar” jamlanmalarining yashirin ma'nolari matn mavzusi, ya'ni koʻrgazma soʻziga bogʻliq ravishda kinoyaviy kulgini hosil qiladi. Demak, koʻrgazma soʻzi ushbu matnda kinoya ma'nosini uyushtiruvchi markaz hisoblanadi. “Sira oʻqilmagan”, “biron odam varaqlamagan, hatto qoʻliga ushlab

²³Умуркулов Б. Бадиий адабиётда сўз. Тошкент, Фан, 1993, 16-б.

ko`rmagan kitoblar” tushunchalari tom ma'noda “ko`rgazma” tushunchasi bilan bog`lana olmaydi. Chunki ko`rgazma so`zining semantik tarkibida “namunali” semasi mavjud bo`lib, u “sira o`qilmagan”, “biron odam varaqlab ko`rmagan, hatto qo`liga ushlab ko`rmagan kitoblar” tushunchasining ma'nosiga zid keladi. Bu zidlikni “bosilganiga o`n besh-yigirma yil bo`lgan” jumlasida ifodalangan tushuncha ta'kidlaydi. Demak, mazkur jumlar bilan ko`rgazma so`zi o`zaro semantik tomonidan oksyumoron holatda bog`langan. Ayni jumlarning semantik oksyumoron bog`lanishi va ular orqali muallif sub'yektiv munosabatining ifodalanish kinoyaviy kulgini yuzaga keltiradi. “Bu kitoblarga qo`l tegizish taqiqlanadi” jumlasining presuppozitsiyasi ham kinoyaviy kulgi uchun xizmat qiladi. Uning presuppozitsiyasiga yuqoridagi jumlar ishora qiladi. Bu jumlaning presuppozitsiyasi turli ko`rgazma yoki muzeylarga qo`yilgan nodir kitoblarga (o`z ma'nosida) nisbatan ifodalanadi. Yuqoridagi matnda esa uning ana shu to`g`ri ma'nosiga qarama-qarshi bo`lgan ma'nosidan foydalaniladi. Ayni paytda, so`z o`yini ham hosil bo`ladi. Ya'ni qo`l tegizilmagan (arzimas) kitoblarga ko`l tegizish ta'qiqlanadi. Matn mazmuyeiga bog`liq bu so`z o`yini kulgini yanada bo`rttiradi. “Nodir kitoblar” jumlasida esa matn mazmuni, so`zlovchining subyektiv munosabatidan kelib chiqib, o`z (to`g`ri) ma'nosiga butunlay qarama-qarshi bo`lgan kuchma ma'noda qo`langan. “Nodir” so`zning bunday qarama-qarshi ma'noga ega bo`lishi yuqorida matn (leksik qurshov) dagina amalga oshadi. Chunki u o`ziga xos bo`lmagan leksik qurshovda kelgan. So`z ma'nosining boshqa tomonga siljishi, kupincha, uning o`zi uchun xos bo`lmagan kontekst ichida kelganda yuz beradi.

Ko`rinadiki, matn so`zning yangi ma'no qirralarining yuzaga chiqish imkoniyatidir. Tahlildan ma'lum bo`ladiki, kinoya uslubiga asoslanib qurilgan matnlarda umumiy kinoyaviy mazmun ma'lum suzlar ishora qilgan yashirin ma'nolarda namoyon bo`ladi. Ma'lum nutqiy vaziyat uchun xoslangan ishora

ma'nolariga ega bo'lgan so'zlar o'ziga xos kinoyaviy modallikni ifodalab, syujet voqealarning kinoyaviy tarzda yoritib berish uchun xizmat qiladi.

Shahar teatrida dramaturg Mehmonovning yangi muzikali dramasi prem'yerasi bo'lib o'tdi. Muhokama majlisida so'zga chiqqan tomoshabinlar qizg'in bahsga kirishdilar. Ular teatrning ijodiy kollektivi va dramaturgni teatr foyesida tashkil qilingan yangi bufet bilan qizg'in tabrikladilar. So'zga chiqqanlar bufetchi Oysha xolaning hushmuomalaligi, sotilayotgan mollar assortimenti nihoyatda rang-barangligini alohida qayd qildilar. Shunga qaramasdan, teatr kollektivi bufetni yanada yaxshilash, somsa, chuchvara, qatlama kabi milliy taomlar xilini ko'paytirish, ko'k choyni stakanda emas, choynakda damlash imkoniyatiga ega ekanligini alohida uqtirib o'tdilar. Mehmonov tomoshabinlarga minnatdorchilik bildirdi. (S.Ahmad, Yulduz. Premyera. Toshkent, 1986 yil. 143-bet).

Ushbu matnda muallif jiddiy voqea haqida bayon qilib, kutilmaganda o'quvchi diqqatini asosiy masaladan chetga buradi. Ya'ni drama prem'yerasi va uning muhokamasi haqida gap boshlab, teatrda tashkil qilingan bufet masalasiga o'tib ketiladi. Matn mazmunining bunday shaklda qurilishi kinoya uslubini vujudga keltiruvchi presurpozitsiyasiga ishora qiladi. Bu presurpozitsiya matnni to'liq o'qib chiqish mobaynida matn mazmunining nima maqsadda boshqa yo'nalishda davom etganligi anglashilgandan keyin ma'lum bo'ladi. Shunday keyin "Mehmonovning", "Qizg'in bahsga kirishdilar", "Yangi bufet bilan tabrikladilar", "Mehmonov tomoshabinlarga minnatdorchilik bildirdi" jumllariga kinoyaviy ma'no yuklangani anglashiladi. Natijada hosil bo'lgan maqsadli tag ma'noli matn mazmunidan kinoviy kulgi yuzaga keladi. Demak, bu matnni o'qish mobaynida o'quvchi ongida hosil bo'lgan so'zlar semantikasi tahlili natijasida amalga oshadi. Bu yerda umumiylikdan xususiylikka tomon yo'nalgan tahlilni ko'rish mumkin. Ya'ni matnni umumiy mazmunidan matnni tashkil qilgan til birliklaridagi boshlanish va ular orasidagi munosabat hamda ularning matnda ega bo'lgan

ma'nolari ochiladi. Yozuvchining badiiy matnni yaratishda til birliklaridan hrinli foydalanishdagi mahorati shunda ko`rinadiki, matnda qo`llangan har bir o`z ma'nosidan tashqari yana boshqa ma'nolarga ham ishora qilib turadi. Bu ishora ma'nolar matnning umumiy maqsadli tag ma'nosi bilan bog`liq bo`ladi. Natijada yozuvchining matn tuzishdagi o`ziga xos uslubi namoyon bo`ladi. Jumladan, "Mehmonov" so`ziga ham shunday qo`shimcha ma'no yuklanganki, u matnning mazmunidagi umumiy kinoyaga ishora qilib turadi. "Mehmonov" so`ziga mazkur matnda yuklangan umumiy maqsadli tag ma'noli magn mazmuni bilan bog`lik kinoyaviy ma'no ham kulgi uchun alohida turtki beradi.

Tahlildan ko`rinadiki, kinoya uslubining murakkab ko`rinishlarida kinoyaviy okkozional ma'nolar matn tarkibidagi konkret so`zlarga yuklangan bo`lsa ham, ularning kinoya ma'nosiga ega ekanligi, matndagi tag ma'noli kinoya matn o`qib chiqilgandan keyin, demak, matnning umumiy mazmunidan anglashiladi. Bunda matndagi so`zlarning ma'no jihatdan ichki aloqadorligi rol o`ynaydi.

Shuningdek, kinoyaning hazil-mutoyibali bo`lishining sababi personajlar yoki so`zlovchi va tinglovchi o`rtasidagi munosabatning ziddiyatli emasligidir. Agar ziddiyatli bo`lsa, kinoyada salbiy sub'yektiv munosabat aks etadi. Demak, kinoyaviy kulgi hosil bo`lishining o`z lisoniy asoslari mavjud bo`lib, kinoyali qo`llangan til birliklarining tag ma'nolari orqali yozuvchi yoki so`zlovchining nutq predmetiga nisbatan ko`pincha, salbiy sub'yektiv munosabati ifodalanadi. Binobarin, kinoya maqsadli tag ma'noli matn birliklari ishora ma'nolarining o`zaro bog`liqligi asosida yuzaga keladi. Shuningdek, kinoya usuli til birliklarining nutq jarayonidagi faoliyati natijasida hosil bo`ladi. Demak, kinoya nutqiy hosiladir. Misollar tahlilidan kelib chiqib, kinoya uslubi va kinoyaviy kulgi hosil bo`lishi haqida quyidagi xulosalarni chaqirish mumkin:

1. Kinoya o`ziga xos kulgi hosil qiluvchi vosita sifatida so`zlarning ma'lum matn yoki nutqda ega bo`lgan okkazional ma'nolari evaziga hosil bo`ladi.

2. Kinoya orqali yozuvchi yoki soʻzlovchining sub'yektiv munosabati ifodalanadi va mazkur munosabati zamirida kinoyali kulgi yotad.

3. Matndagi til birliklarini kinoyaviy ekanligini anglashda, shuningdek, kulgi hosil boʻlishida presuppozisiya ham muhim ahamiyatga ega.

4. Konkret lisoniy birliklarga yuklangan kinoya ma'nosi ularning nutqiy xoslanishdagi shakl va mazmun zidligi asosida yuzaga keladi.

5. Soʻz va qoʻshimchaning oksyumoron bogʻlanishidan hosil boʻlgan lisoniy birlik ham kinoyaviy kulgi hosil qilishi mumkin.

6. Til birliklarini mubolagʻali koʻchma ma'noda qoʻllash ham kinoya uslubini, shuningdek, kulgini hosil qiladi.

7. Kinoya ma'nosining boʻrttirilishida yuklamalar (ayniqsa, ta'kid yuklamalar)ning ham alohida oʻrni bor.

8. Metaforik qoʻllangan soʻzlarda hosil qilingan kinoyalarda kinoya va kulgining ta'sirchanligi birmuncha yuqori boʻladi.

9. Matnda tag ma'noga ega boʻlgan atoqli otlar va individual qoʻllanishdagi nomlar ham oʻziga xos kinoya uslubi va kulgini hosil qiladi.

10. Paronomaziya hodisasi maxsus kinoyaviy kulgi hosil boʻlishida alohida ahamiyatga ega.

11. Ba'zi matn(nutq)larda soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi sub'yektiv munosabatga bogʻliq hazil-mutoyibali kinoyaviy kulgi hosil boʻlishi mumkin.

12. Umuman, kinoya uslubi maqsadli tag ma'noli matnda vujudga keladi.

Oʻzbek tilida kinoya yoʻli bilan soʻz ma'nolarining oʻziga xos taraqqiyoti roʻy beradi. Ammo bu ma'no faqat kinoyaviy matndagina namoyon boʻladi. Shuning uchun bu uslub bilan bogʻliq hodisa boʻlib, bunday koʻchma ma'nolar leksik ma'no doirasiga kirmaydi. Demak, kinoya usuli bilan hosil qilingan koʻchma ma'no faqat okkazional ma'no doirasiga oiddir.

3.1. Kinoyaviy presuppozitsiyaga ishora qiluvchi nomlar.

O'zbek adabiyotida o'ziga xoso'rin tutgan kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan yumorga boy asarlar muallifi Said Ahmaddir. Yozuvchining deyarli barcha asarlarida inson ustidan kuladigan quruqkulgini emas, balki insonga bo'lgan muhabbatdan tug'iladigan o'ziga xos betakror kulguni yaratadi. Shu tufayli uning asarlari yumorga yumoristik unsurlarga boyligi, xarakterlar tabiatiga yumor mantiqan singdirib yuborilganligi bilan qimmatlidir.

Kulgu yozuvchini tilini yumor tiliga aylantirib lirizm bilan omuxta bir ohang o'ziga xoslik bag'ishlaydi. Bu esa S.Ahmad uslubini belgilovchi bosh xususiyatlardan biriga aylanadi. Shu tufayli yozuvchi asarlaridagi juda ko'p unsurlar o'z-o'zidan tabiiy ravishda kulgu yaratishga xizmat qiladi. Uning asarlarida nomlar laqablar, o'xshatishlar ba'zan so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash personajlar nutqida har xil qo'pol so'zlar ishlatish kabi juda ko'p vositalar kulgu uyg'otadi. Boshqa biror bir yozuvchi asarida bu vositalar umuman kulguuyg'otmasligi mumkin. Biroq, S.Ahmad qalamida ular hajv uyg'otish vositalariga aytiladi, Shuning uchun ham yumoristik asarlardagi yumor yaratuvchi vositalarni tavsif qilish badiiy asarlarni tilini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Shoira Ahmedova buni shunday tavsif qiladi.

1. So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash orqali kulgu hosil qilish.
2. Har xil qo'pol so'zlarni ishlatish orqali kulguhosil qilish.
3. Nom va laqablar orqali kulguhosil qilish.
4. Adabiy tilga, shevaga xos so'zlarni kiritish orqali kulgu yaratish.
5. Boshqa tildan so'z olish, chet so'zlarni o'z tiliga moslashtirish orqali kulguhosil qilish.
6. Har xil kasbga oid so'zlarni keltirish bilan kulgu hosil qilish.
7. Ortiqcha takalluf orqali kulguhosil qilish.
8. O'xshatishlar orqali kulguhosil qilish.
9. Oddiy xalqona ifodalardagi yumorni ajratib olish.

10. Kulgu uygʻotuvchi alohida soʻzlar.

11. Asarda shaxslar portreti qirralarini chizish, qiyoslashorqali kulguga yoʻl ochish.

Badiiy asarlarda, ayniqsa, hajviy asarlardagi atoqli ot va turli nomlar matnning kommunikativ maqsadi va mazmunidan kelib chiqib turli kinoyaviy tag ma'nolarga ishora qiladi hamda bunday tag ma'nolar va ularning ifodalanishi kinoyali kulgini hosil qiladi. Bunday nomlar rus adabiyotida buyuk hajvchi Gogol ijodida koʻrinadi. Masalan, Bashmachkin, Yaichnisa, Svinin, Akakiy Akakevich kabi. Oʻzbek adabiyotida personaj xarakter-xususiyatini ochib beruvchi kinoyaviy tag ma'noli kulgi yaratuvchi nomlar S.Ahmad, A.Qahhor, N.Aminov va boshqa yozuvchilarning hajviy asarlarida uchraydi. Ayniqsa, S.Ahmad asarlarida ayrim nomlar matn mazmuniga mos tag ma'nolarga ishora qilib, kulgi yaratadi. Masalan, Gʻoyibnazar Pinhonov, yozuvchi Madoriy, Oldi Sottiyev, Nomozgar Xuftonov, Sotti, Xanka, Tanka, Tijoratxon, sinovchi ichuvchi, sinovchi yeyuvchi kabi. Turli atamalar va kulgi hosil qiluvchi atoqli otlar bevosita okkazonal ma'noga ega boʻlmaydi. Demak, bunday soʻzlar uslubiy jihatdan neytral boʻladi. Chunki atamalar va atoqli otlar uchun uslubiy ekspressivlikka ega boʻlmagan soʻzlarga xosdir. Bunday soʻzlarga matn maqsadidan kelib chiqib, mantda okkazonal ma'no yuklanadi hamda u maqsadli tag ma'noli matnni yuzaga keltiradi. Aslida atoqli otlar mazmuniy tuzilishiga ega boʻlmaydi. Shuningdek, ular semantik jihatdan notoʻliq ekanligi bilan xarakterlanadi. Shu nuqtai nazardan ularga faqat birgina xususiyat, ya'ni nomlash, ifodalashgina xosdir. Muallif esa atoqli otlarga matn mazmuni bilan bogʻliq qoʻshimcha komik ma'no yuklaydi hamda uning ikkinchi funksiyasini, ya'ni aniqlash funksiyasini ham yaratadi. Natijada atoqli otlar ham ma'lum ma'noda mazmuniy tuzilishga ega boʻlib, tag ma'nolarga ishora qiladi. Atoqli otlarning mazmuniy va funksional maqomining bunday oʻzgarishi soʻzlovchi yoki muallifning sub'yektiv munosabati va matn xakteri bilan bogʻliq. Atoqli otlarning ishoraviy tag ma'nolarga ega boʻlishi ularga yuklangan okkazonal ma'nolarni xakterlovchi matnda amalga oshadi. Demak, har qanday

til birligi nutqda 1ki matnda emosional-ekspressiv bo`yoqqa ega bo`lib qolishi mumkin. Bu hodisa nutq til birliklari uchun imkoniyat, binobarin, undan farq qilishini ko`rsatadi. Badiiy matnlardagi kinoyaviy tag ma'nolarga ega bo`lgan nomlar personajlarning xarakter-xususiyatlari, odatlari, qiliqlari, vazifasi yoki tashqi ko`rinishi va belgilariga ishora qiladi. Respublika, hatto ittifoq ahamiyatiga ega bo`lgan mashhur anonimchi G`oyibnazar Pinhonov oramizdan ketdi. Ustoz G`oyibnazar ota nihoyatda **chapdast**, **seruslub** va **hozirjavob** anonimchilardan biri edi. (S.Ahmad. Yulduz. Toshkent, 1986 yil, 118-bet). Matnda kishilarning nomlarida uchraydigan G`oyibnazar atoqli otiga matn mazmuniga mos okkazional ma'no yuklanishi kinoyaviy kulgi hosil qiladi. "G`oyibnazar" so`zining matnda kinoyaviy okkazional ma'noga ega bo`lishi uning shakli ma'lum darajada ishora qiladigan zohiriy ma'nosi hamda uni qurshab turgan leksik kontekst (anonimchi Pinhonov)da amalga oshadi. Demak, "anonimchi", "G`oyibnazar", "Pinhonov" so`zlari shakliy va mazmuniy tomondan o`zaro bog`liqlikda kinoyali kulgi yaratadi. Muallif shu tarzda "G`oyibnazar" atoqli otiga kinoyaviy komik ma'no ko`shadi. Shuningdek, matnda "chapdast", "seruslub", "hozirjavob" so`zlariga ham ularning semantik tuzilishiga kirmaydigan qo`shimcha kinoyaviy tag ma'nolar yuklangan bo`lib, bu ma'nolarga ham "anonimchi" so`zi ishora qiladi:

chapdast – chap qo`lida ham yoza oladigan;

seruslub – har xil qilib yoza oladigan;

hozirjavob – hozir eshitgan voqeani sovitmay yozib yubora oladigan.

Chapdast – fors-tojikcha so`z bo`lib, hozirgi o`zbek tilida "epchil", "chaqqon", "uddaburon", "abjir" ma'nolarida qo`llanadi. Matnda bu so`zni ana shu o`z ma'nosida qabul qilish mumkin. Lekin unda kulgi hosil bo`lmaydi. Kulgini "chapdast" so`ziga uning semantik tuzilishiga kirmaydigan, matnning umumiy mazmuni bilan bog`liq okkazional ma'no (chap qo`lida ham yoza oladigan) qo`shilishi hosil qiladi. Bunday tag ma'no yaratishda "chapdast" so`zining shakliy tuzilishidan bilinib turadigan etimologik (chapQdast (f-t)-qo`l)

ma'nosiga asoslanilgan. Natijada shakl va tag ma'no uyg'unligi yuzaga kelgan. "Uslub" so'zi "yozuvchining adabiyot janrining til vositalaridan foydalanishdagi o'ziga xos yo'li, ishlash yoki boshqarishdagi o'ziga xoslik" ma'nolarida qo'llanadi. Matnda esa bu so'zga ser-affiksi qo'shilib, personaj xarakteri (anonimchi)ga ishora qiluvchi "har xil qilib yoza oladigan" ma'nosi yuklanyapti. "Seruslub" so'zining matnda ega bo'lgan ana shu ma'nosi kulgi hosil qiladi. "Hozirjavob" so'zi ham o'z ma'nosida "berilgan savol yoki luqmaga darrov javob bera oladigan yoki davr zamon ruhiga mos fikrni ayta oladigan" ma'nolarda qo'llanadi. Lekin unga matnning umumiy mazmuniga mos qo'shimcha "Hozir eshitgan voqeani sovitmay yozib yubora oladigan" ma'nosining yuklanishi kulgini yuzaga keltiradi. Demak, chapdast, seruslub, hozirjavob so'zlari mazkur matndagina yuqorida ko'rsatilgan kulgini hosil qiluvchi tag ma'nolarga ega bo'ladi. Shuningdek, ularning o'ziga xos tag ma'nolari atoqli ot "G'oyibnazar Pinhonov" so'ziga yuklangan ma'nolarni to'ldirib, maqsadli tag ma'noli matn hosil qiladi. Bunda matndagi "anonimchi" so'zi "G'oyibnazar Pinhonov" "chapdast", "seruslub", "hozirjavob" so'zlarining matn mazmuni bilan bog'liq tag ma'nolarining anglanishiga yordam beradi. Personajlarni kishilarning ism va familiyalarida uchramaydigan so'zlar bilan nomlash ham kinoyali kulgi hosil qiladi: Oldi Sottiyevning hech qayerda ishlamaganiga qirq yil, bozorda chayqovchilik qila boshlaganiga o'ttiz yil to'lishi munosabati bilan "yubiley" bo'lib o'tdi. Rayon madaniyat uyining tomosha zalida o'tgan tantanali yig'ilishda **prokuror** Qahhorov K. Oldi Sottiyevning bosib o'tgan yo'li va xizmat faoliyati to'g'risida kirish so'zi qildi. (S.Ahmad. Yulduz. Toshkent, 1986 yil, 135-bet). Matndagi personaj nomi "Oldi Sottiyev"ga matn mazmuniga bog'liq ishoraviy ma'no yuklangan bo'lib, u muallifning sub'yektiv tanqidiy munosabatini ifodalaydi. Shuningdek, bu so'z butun matnning kinoyaviy mazmunini belgilab beradi. Shu bilan birga matn mazmuni xam bu so'zning tag ma'nosiga ishora qiladi. "Chayqovchilik" so'zi "Oldi Sottiyev" atoqli otining "chayqovchi"

soʻzining boshqacha (evfemistik) nomlanishi ekanini koʻrsatib turadi va xuddi shu boshqacha nomlanishi kulgi hosil qiladi. Bunday nomlanish nom va familiyani ifodalagan soʻzlar tarkibidagi “sotib olmoq” va “sotmoq” maʼnolariga asoslanadi. Shuningdek, “Oldi Sottiyev” atoqli otining matndagi tag maʼnosi “yubiley”, “tantanali yigʻilish”, “madaniyat uyi”, “tomosha zali” birliklarining ham oʻz maʼnolariga qarama-qarshi kinoyaviy maʼnoda qoʻllanganligi koʻrsatadi. Demak, bunday atoqli otlar oʻzi tegishli boʻlgan matndagina okkazional maʼnoga ega boʻlib, nutqiy jarayonda muayyan nutqiy sharoit uchungina axborot vositasi boʻlishi mumkin.²⁴ Quyidagi matnda atoqli otning tag maʼnosini matn birliklarining umumiy kinoyaviy mazmuni koʻrsatib turadi: *Rayon markazida madaniyat uyining klubida yozuvchi **Madoriy** bilan ijodiy uchrashuv boʻldi. Uchrashuvda Madoriy soʻzga chiqib, bundan buyon kitob yozmaslikka va umuman adabiyotga aralashmaslikka soʻz berdi. Uchrashuv qatnashchilari uning bu nutqi va majburiyatini qizgʻin gulduros qarsaklar bilan kutib oldilar. Soʻzga chiqqan kitobxonlar Madoriyning bu tashabbusi adabiyotimiz rivojiga juda katta taʼsir koʻrsatishini taʼkidladilar.* (S.Ahmad. Yulduz. Toshkent, 1986 yil, 142-bet). Soʻz nimanidir atash (nominativ) vazifasini bajarish bilan birga oʻzi atagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabatni ham koʻrsatib turadi. Soʻzning bunday xususiyati ayniqsa, badiiy adabiyotda yaqqolroq koʻzga tashlanadi. Chunki badiiy adabiyot koʻproq, axborot berish emas, balki taʼsir qilish funksiyasini bajaradi. Shuning uchun soʻz badiiy nutqda kutilmagan ishoraviy tash maʼnolarga ham ega boʻlib qolishi mumkin. Shu bilan til birliklarining ijtimoiy-estetik maʼnoga ham ega boʻlishi namoyon boʻladi. Berilmagan matnda atoqli ot Madoriy (taxallus) soʻziga nutq predmetining xarakter-xususiyati, kamchiligiga ishora qiluvchi kinoyaviy tag maʼno yuklangan boʻlib, muallifning salbiy subʼyektiv munosabatini koʻrsatuvchi bunday kinoyaviy tag maʼno “kitob yozmaslikka va adabiyotga aralashmaslikka soʻz berdi”, “bu nutqi va

²⁴Раҳимов У. Коса, коса тагида ним коса. Андижон, 1995 й. 44-б.

majburiyatini qizg'in gulduros qarsaklar bilan kutib oldilar", "bu tashabbusi adabiyotimiz rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatishini ta'kidladilar" jumllarida ifodalangan axborot orqali anglashiladi hamda kinoyali kulgi hosil bo'ladi. Odatda, taxallus ijobiylik belgisiga ega bo'lgan so'zlardan tanlanadi. Matnda yozuvchining taxallusi bo'lgan "Madoriy" so'zida esa salbiy baholanuvchi presuppozisiya yashiringan. Bu presuppozisiya "mador" so'zining shakliy ifodalanishidan ham sezilib turadi. "Mador" so'zi "kuch-quvvat" ma'nosining bir muncha past darajadagi ifodasi bo'lib, shu ma'no munosabati asosida "zo'rg'a ijod qiladigan", "qibiliyatsiz" presuppozisiyalariga ishora qilinadi. Bu presuppozisiya "yozuvchi Madoriy", "kitob yozmaslikka", "adabiyotga aralashmaslikka", "majburiyat", "gulduros qarsaklar", "tashabbus", "adabiyotimiz ravnaqi", "ta'sir ko'rsatish" birliklarining matndagi o'zaro semantik jihatdan bog'lanishida yanada oydinlashadi. Shuningdek, matnning mazkur birliklari o'zaro oksyumoron holatda bog'langan bo'lib, bu oksyumoron bog'lanish yuqoridagi taxallus (Madoriy)ni ifodalovchi so'zda yashiringan presuppozisiyaga ishora qilib, muallifning nutq predmetiga kinoyaviy salbiy sub'yektiv munosabatini ko'rsatadi va eng muhimi kulgi hosil qiladi. Matndagi gaplar propozisiyalarining semantik bog'lanishiga e'tibor bersak, yozuvchining ijodiy uchrashuvda kitob yozmaslik va umuman adabiyotga aralashmaslikka so'z berishi va bu majburiyatni gulduros qarsaklar bilan kutib olinishi tushunchalari ob'yektiv voqelikka mos kelmaydi. Demak, tushuncha va voqelik bog'lanishidagi oksyumoron vujudga kelgan. Yuqoridagi hodisalarni tashabbus sifatida qabul qilinishi propozisiyalar bog'lanishidagi ziddiyatni, shuningdek, kinoyaviy kulgini bo'rttiradi. "Tashabbus" so'zi "biror ishga da'vat etuvchi", "boshlovchi", "a'y-harakat", "g'ayrat" ma'nolarini ifodalab, ijobiylik belgisiga ega. Shuning uchun yozuvchining kitob yozmaslik va umuman adabiyotga aralashmaslikka so'z berishini tashabbus sifatida baholab bo'lmaydi. Lekin bu tushunchalarning bog'lanishi ularning presuppozisiyalari hisobiga yuz beradi. Buni shunday tushunish mumkin: Madoriy-qobiliyatsiz, yomon yozuvchi.

Bunday odamlar kitob yozmasligi kerak. Ular yozgan qadsiz asarlar adabiyot rivojiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun Madoriyning kitob yozmaslik va adabiyotga aralashmaslikka so'z berishi adabiyot inqirozining oldini oluvchi tashabbus. Mazkur mazmunni semantik jihatdan oksyumoron holatda bog'langan propozisiyalarda presuppozisiyali ifodalanishi kinoyali tag ma'noli matn, shu bilan birga, kulgi hosil qilgan. Shuningdek, butun matn atoqli ot Madoriy so'zinig matndagi tag ma'nosini ochishga xizmat qiladi. Badiiy, ayniqsa, hajviy asarlardagi maqsadli tanlangan nomlar ma'lum ma'noda muallifning sub'yektiv munosabatini ifodalab, asarning umumiy mazmuni va maqsadiga ishora qilib turar ekan, muallif nom hamda asarning umumiy mazmunini va maqsadining uyg'unligini ta'minlash uchun o'ziga xos individual qo'llanishdagi nomlardan ham foydalanadi. Asarda bunday maxsus modal munosabat ifodalovchi nutqiy situasiyaga bog'liq so'z ishoralar (nomlar) syujet harakatlarini kinoyali yoritishga o'z hissasini qo'shadi. Bunday muallif tomonidan individual qo'llangan nomlarni yozuvchi S.Ahmadning hajviy asarlarida uchratish mumkin. Masalan, sinovchi ichuvchi, sinovchi yeyuvchi, sinovchi kiyuvchi, sinovchi yalovchi, sinovchi xo'plovchi, sinovchi yo'rg'alovchi kabi. Bu nomlarning shakliy ifodasi kulgi hosil qilish bilan birga ularning tag ma'nolari orqali sub'yektiv munosabat o'z aksini topadi. Kulgi hosil qiluchi bunday nomlarning ishoraviy tag ma'nolari va sub'yektiv munosabat ularning matndagi boshqa til birliklari (leksik kontekst) bilan munosabatida ko'rinadi.

Muxbir (mikrafonga). Aziz radio tinglovchilar! Har bir korxonaning mahsuloti sifatini aniqlaydigan o'z sinovchilari bo'ladi. Masalan: yangi samolyotni birinchi uchirib beradigan uchuvchini sinovchi uchuvchi deydilar.. Mana, qarshimizda turgan barvasta qomatli, qarashi bargut nigohini eslatadigan, butun vujudidan kuch-g'ayrat, sadoqat, vafo sezilib turgan kishi mana shu zavodning sinovchi ichuvchisidir... (S.Ahmad. Saylanma. 1-jild. Sinovchi ichuvchi, 363-bet). Matnda muallif paronomaziya hodisasi asosida kinoyaviy tag ma'noli kulgi yaratadi.

Paronomaziya talaffuzi o`xshash, faqat bir-ikki tovushga ko`ragina farqlanuvchi leksik ma'nolari bir-biridan uzoq so`zlar yonma-yon qo`llanadigan nutq figurasi bo`lib, badiiy adabiyotda undan ifodalilik, ohangdorlikka erishish, komik effekt yaratish, so`z o`yini qilish kabi maqsadlarda juda keng foydalaniladi. Yuqoridagi matnda (nutq) paronomaziya hodisasi paydo bo`lishining o`z lisoniy asoslari mavjud. Muallif bunda “sinovchi” so`zining ma'nolari vau ifodalagan nom asosida koniyaviy tag ma'noli individual qo`llanishdagi nom hosil qiladi. Demak, ishda, amalda maxsus sinovdan o`tkazuvchi mutaxassislik nomi bo`lgan “sinovchi” so`zi, sinovchi ichuvchi nomining hosil bo`lishi uchun asos bo`ladi. Natijada sinovchi ichuvchi va sinovchi ichuvchi nomlarining qiyoslanishi asosida hosil qilingan o`ziga xos so`z o`yini kulgi qo`zg`aydi. Shuningdek, “sinovchi ichuvchi” nomi “ichkilikboz” so`zining boshqacha nom bilan nomlanishi, ya'ni o`ziga xos so`z evfemistik qo`llanishi (implisit ifoda) bo`lib, bu ifodaning tag ma'nosi unga aniqlovchi sifatida kelgan matnning boshqa til birliklari (barvasta qomatli, qarashi burgut nigohini eslatadigan, butun vujudidan kuch-g`ayrat, sadoqat, vafo sezilib turgan)ga ham kinoyaviy tus beradi. Mazkur kinoyaviy ruh asarning butun syujetiga boshdan-oyoq singdirilib, maqsadli tag ma'noli matn yuzaga keltiriladi.

KISHI: katta qizim tikuvchilik fabrikasida sinovchi kiyuvchi bo`lib ishlaydi..., ikkinchi o`g`lim konserva zavodida sinovchi yeyuvchi bo`lib ishlaydi..., o`rtancha qizim konditer fabrikasida sinovchi yalovchi bo`lib ishlaydi..., kenja qizim shahar oshxona va restoranlaridagi trestda sinovchi xo`plovchi bo`lib ishlaydi...

Muxbir: Demak, farzandlaringizning hammasi ham ota kasbini tanlashibdi-da.

Ko`rinadiki, “sinovchi” so`zi asosida yaratilgan keyingi nomlar ham kinoyaviy tag ma'noli kulgi hosil qiladi. Sinovchi kiyuvchi, sinovchi yeyuvchi, sinovchi yalovchi, sinovchi xo`plovchi kabi nomlar ham yuqoridagi kabi tekinxo`r, tashmachi kabi salbiy emosional-ekspressiv munosabat bildiruvchi so`zlarning boshqacha nomlanishi bo`lib, mazkur munosabat, uslubiy bo`yoq ularning evfemistik qo`llanishdagi ifodalarida ham ma'lum darajada aks etib turadi.

Sinovchi kiyuvchi, sinovchi yeyuvchi, sinovchi yalovchi, sinovchi xo`plovchi nomlari ishora qiluvchi tag ma'nolar (tekinxo`r, tashmachi) asarning keyingi o`rinlarida yanada ravshanlashadi.

KISHI: Bizning uyda ovqat qilinmaydi. Masalan, o`g`lim o`zi sinaydigan konserva zavodidan sinash uchun to`rt-beshta konserva olib keladi, butun oila a`zolarimiz bir bo`lib, kechki ovqat paytida sinab qo`ya qolamiz. Ertalabki nonushta paytida qizim sinash uchun konfet, pechenye, tort, shokolad olib keladi. Butun oila a`zolari birpasta sinab tashlaymiz. Tushlik paytida yana hammamiz uyga kelamiz, sinovchi xo`plovchi bo`lib ishlaydigan qilim kotlet, lag`mon, kabob, manti, somsa, kabi arzimas narsalarni sinash uchun uyga olib keladi. Yana qo`pchilik bo`lib bir soatda sinab tashlaymiz.

KISHI: Bizning uyda kir yuvilmaydi. Tikish fabrikasidan qizim sinashga kuylak, pastki kiyim, kostyum, u-bularni olib keladi... (S.Ahmad. O`sha asar. 367-bet).

Matndagi o`ziga xos evfemistik qo`llanishdagi “sinash uchun”, “sinab qo`ya qolamiz”, “sinab tashlaymiz”, “sinashga” va o`zi izohlayotgan predmetga nisbatan nomuvofiq keluvchi “arzimas narsalar” kabi jummalarni tag ma'nolari nomlarning va umuman butun asarning kinoyaviy ruhini hamda kulgini yana ham bo`rttiradi. Demak, sinovchi ichuvchi, sinovchi kiyuvchi, sinovchi yeyuvchi, sinovchi xo`plovchi kabi muallif tomonidan individual qo`llangan ob'yektiv reallikka mos matnda kinoya uslubi va kulgini vujudga keltirgan. Ishora xususiyatiga ega bo`lgan bunday kulgili nomlar ma'lum ma'noda asarning xarakterini ham ko`rsatib turadi. Shuningdek, personajning xarakter-xususiyatini yoritib beruvchi kulgili nolarda muallifning salbiy sub'yektiv munosabati ham aks etadi. Yuqoridagi misollar tahlilidan ma'lum bo`ldiki, kinoya uslubi asosan so`zlovchi yoki yozuvchining salbiy sub'yektiv munosabatini ifodalab, satirik xarakterda bo`ladi va nutqda shunga mos til birliklari tanlanadi. Lekin ba'zi matnlarda yengil, hazil-mutoyibali kinoyalar ham uchrab turadi. Bu kinoyalar personajning holatiga

ishora qiluvchi gaplarning presuppozisiyalarida ifodalanadi: ... Liliyaxon nihoyat jurnalidan boshini ko'tarib, ikki qo'lini biqiniga tirab, yasama bir jiddiylik bilan davom etdi: - Xo'sh, o'rtoq Ro'ziyev, eshitaman?

- Nikoh uyining ochilish marosimi bo'larmish, - hazil bilan javob qaytardim, - bizdan ikki kishi borib nikohdan o'tishi kerak ekan.

- Demak, ikkovimiz borar ekanmiz-da?

- Yo'q, yigit ham, qiz ham milisioner bo'lsa to'g'ri kelmasmish.

- Nega to'g'ri kelmasmish?

... – Mabodo qiz tug'ilsa... modalar jurnalidan boshi ko'tarmaydigan bo'p qolarkan. (X.To'xtaboyev. Sariq devni minib, Toshkent, 1990, 393-bet).

Matnda “modalar jurnalidan boshini ko'tarolmaydigan bo'p qolarkan” gapining savol beruvchi personaj (Liliyaxon)ning holati, odatiga ishora qiluvchi presuppozisiyasi yengil, hazil-mutoyibaga asoslangan kinoyaviy kulgi hosil qiladi. Bunday kulgi qo'zg'alishida yuqoridagi gap presuppozisiyasining anglanishi uchun yordam beradigan nutqiy sharoit (situasiya), so'zlovchi va tinglovchi (personajlar) o'rtasidagi shartnomaviy munosabat muhim rol o'ynaydi. Agar mazkur faktorlarga asoslangan presuppozisiya bo'lmasa, “modalar jurnalidan boshini ko'tarmaydigan bo'p qolarkan” gapi hech qanday kulgi hosil qilmaydi. Ushbu gapning presuppozisiyasi matnning dastlabki qismida ifodalangan: “Liliyaxon nihoyat jurnalidan boshini ko'tarib ikki qo'lini bilga tirab, yasama bir jiddiylik bilan davom etdi”. Demak, kinoya qiluvchi personaj (Ro'ziyev) har safar qabulxonaga kirganda, kinoyali replika qaratilgan personaj (Liliyaxon) modalar jurnalini varaqlab o'tiradi, u – modalar jurnalining ashaddiy ishqibozi. O'quvchi “modalar jurnalidan boshini ko'tarolmaydigan bo'p qolarkan” gapini o'qiganda, uning xotirasida yuqoridagi axborotlar tiklanib, nutqiy sharoit hamda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi shartnomaviy munosabatga bog'liq presuppozitsiyani tushunadi. Natijada unda o'ziga xos yengil yumor paydo bo'ladi.

3.2. Hajviy asarlarda qo`llangan laqablar.

Said Ahmad nomlardan ham, laqablardan ham, jozibadorlik milliy harorat ma'no hosil qilishga usta. U nomdan obrazning tabiatan ochishda foydalanadi. Nomlar va laqablar uning asarlarida qahramonning qiziq bir sifatini ta'kidlab turadi. Ba'zi hajvchi yozuvchilar ko'pincha obrazlar personajlarni nomlashda kulgu chiqarishga e'tibor beradilar. Buhodisa rus adabiyotida hajv ustasi Gogol nomi bilan bog'liq. U tanlagan nomlar tasvirlanayotgan obrazning chehrasini yoki xarakterini ochib beradi va bunga xizmat qiladi va shu bilan kulgu chiqaradi. (Яичница, Свинин, Башмачкин.)

S.Ahmadda esa nomlardan ko'ra kishilarga qo'yilgan laqablar kulgu chiqaradi. Chunki topib qo'yilgan laqab personajning xarakteriga yoki yozuvchibo'rttirib ko'rsatmoqchi bo'lgan biror bir xususiyatiga shunday mos tushadiki, U beixtiyor kitobxonning kulgusini qo'zg'atmay iloji yo'q: Xodivoy (bolaligidan g'udayganroq yuradi), Qurbonboy (amaldorlar ustidan qurbon bo'lguday xizmat qiladi), Yog'ochpolvon (kurash tushishda hech kim bu polvonni buka olmaganidan unga shunday laqab berilgan), O'rik domla (O'riklarni yig'ib ko'paytirishga qiziqadigan odam), Cho'l burguti (cho'lni o'zlashtirishda mehnatini singdirgan, obod qilgani uchun nomlangan), Xanka, Tanka, Anzirat, Mullajon, Polvoniy, Malla kabi laqablar kulgu chiqarishdan tashqari personaj xarakterini u yoki bu qirrasini ochib berishga xizmat qiladi.

Endi bu S.Ahmad faqat laqablar orqali kulgu chiqaradi degani emas, aslida yozuvchining ko'pchilik hikoyalarida hajviy novellalarida qissalarida komediyalaridagi nomlar ham hajv yaratishga xizmat qiladi: Burunboy, Qiltiriq, Kofirqori, Sotti, Farmonbib, Badalbek va hokazo.

Atoqli otlarni o'ziga xos xususiyatlarini joy nomlaridan ham ko'ramiz. S.Ahmad asarlarida joy nomlari ham kulgu qo'zg'otadi. Zirillama, Kesak qo'rg'on kabi turli atamalar va kulgu hosil qiluvchi atoqli otlar bevosita okazional ma'noga ega bo'lmaydi. Demak,

bunday soʻzlar uslubiy jihatdan neytral boʻladi. Chunki atamalar va atoqli otlar uchun uslubiy ekspressivlikka ega boʻlmagan soʻzlarga xosdir.

Bunday soʻzlarga matn maqsadidan kelib chiqib, matnda okkazional maʼno yuklanadi, hamda tag maʼnoli matnni yuzaga keltiradi. Aslida atoqli otlar mazmuniy tuzilishga ega boʻlmaydi, shuningdek ular semantik jihatdan notoʻliq ekanligi bilan xarakterlanadi.

Chunki atoqli ot sifatida qoʻllangan soʻzning samarali unomlangan predmet mohiyatiga hamisha mos kelavermaydi. Jumladan, kishi ismlari: Jasur, Goʻzal, Feruza, Dono, Botir kabi kishi nomlari ismiga mos xarakter xususiyatli boʻlmasligi mumkin. Demak, atoqliotlar bevosita semantik tarkibga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Lekin badiiy asarlarda uslub va yozuvchining badiiy niyati asosida xatto semantik tuzilishga ega boʻlmagan atoqli otlar ham maʼlum. Semantik tarkibiga ega boʻlib qoladi. Bunday badiiy matnlardagi kinoyaviy tag maʼnolarga ega boʻlgan nomlar personajlarning xarakter - xususiyatlari, odatlari, qiliqlari, vazifasi yoki tashqi koʻrinishi bu belgilarga ishora qiladi. S.Ahmadning "Kelinlar qoʻzgʻoloni" komediyasidagi obrazlardan Farmonbuvi - farmon beruvchi yoki buyruq berib turuvchi, Sotti -ovsinlarni bir-biriga, qaynonasiga chaquvchi, gap tashuvchi kabi muallif atoqli otlardan tag maʼnoda matnni yuzaga keltiradiva komik maʼnoda yaʼni aniqlash funksiyasini ham yaratadi. Natijada atoqli otlar ham maʼlum maʼnoda mazmuniy tuzilishga ega boʻlib, tagmaʼnolarga ishora qiladi. Atoqli otlarni mazmuniy va funksional maqomining bunday oʻzgartirishi soʻzlovchi yoki muallifning subyektiv munosabati va matn xarakteri bilan bogʻliq attoqli otlarning ishoraviy tag maʼnolariga ega boʻlishi ularga yuklangan okazional maʼnolarni xarakterlovchi matnda amalga oshadi. Demak, har qanday til birligi nutq yoki matnda emotsional, ekspressivboʻyoqqa ega boʻlib qolishi mumkin. Bu hodisa nutq til birikmalari uchun imkoniyat, binobarin , undan farq qilinishini koʻrsatadi. Badiiy matnlardagi kinoyaviy tag maʼnolarga ega boʻlgan nomlar personajlarning xarakter - xususiyatlari, odatlari qiliqlari, vazifasi yoki tashqi koʻrinishiva belgilariga ishora qiladi. Ushbu matndagi gapga eʼtibor beraylik: "Qurbonboyingiz odam ekan,- dedi,

xotini Tillayev uyiga kelganda, bechora jonini fido qilib yuboraman deydi-ya". (S.Ahmad 1- jild, Qoplon, 252- bet.) Gapdagi kishilar ismida uchraydigan Qurbonboy atoqli otiga gap mazmuniga mos okkazional ma'no yuklanishi kinoyaviy kulgu hosil qiladi. Muallif bu hikoyadagi qahramonning ismini Qurbonboy deb ataydi va uning ma'nosini kengroq ochish maqsadida "jonini fido qilibyuboraman" jumlasini keltiradi. Bu esa obrazni kitobxonga yanada yaxshiroqtanishishga yordam beradi. Shuningdek, gapdagi bechora so'zi ham shakily va mazmuniy jihatdan o'zaro bog'liqda kinoyalikulgu yaratadi.

Yozuvchi hajviy asarlaridagi obrazlarga nom topar ekan, ularning xarakteri, xususiyati, fe'l-atvoridan kelib chiqishga harakat qiladi. Biz bunday hikoyalardan biri Luqmon nomi bilan ataladi. Bu nom bilan ataluvchi obraz haqida yozuvchi shunday deydi: "Luqmon mahallada otning qashqasi, mahalla qariyalari Luqmon pul unadigan bo'lsa, eski maxsini shimishdan ham toyimaydi", - deyishadi, (Saylanma. - 1-jild, 357-bet).

Tilimizdagi Luqmon nomi bilan bog'liq Luqmoni hakim sharq xalqlari orasida tengi yo'q hakim va donolik timsolidir. S.Ahmad esa hikoyada buni ko'chma ma'noda qo'llab satirik asar darajasiga yetkazadi. Yozuvchi o'zicha dono, bir tiyinning ustidan yuz marta do'mbaloqoshadigan xasis, yolg'onchi kimsaobrazidir. "Hodivoy" hikoyasidagi Hodi obrazini S.Ahmad shunday tasvirlaydi: Ammo, Hodi bolaligida ham sal g'udayganroq edi, shuning uchun ham o'rtoqlari uni Hodivoy otiga moslab Hodavoy deb atashadi. Bizga ma'lumki, Hoda daraxtning kesilgan qismi, uzun va novcha odamga aytilgan.

Kishilarga qo'yilgan ismlar birororzu asosida qo'yiladi. Yozuvchi asarlaridan birida shunday keltiriladi: Nazira-Mahkam otaning qizi. Ota o'sha paytlarda farzandi turavermagach shu qizni Saidjamolxon eshonga Nazir qilgan. Uning ismi ham o'sha kunlarning yodgori-Nazira edi. (So'nggi nusxa, 262-bet). Yozuvchi bu parchada obrazni kitobxonga tanishtirish uning keyingi hayotiga qiziqtirish imkoniyatiga yetishtirish uchun bu ism manba bo'lib xizmat qiladi.

Tilimizdagi so'zlarning kelib chiqishijarayoni ham o'z tarixiga egadir. Shular jumlasidan borliqdagi narsalarni nomlanishini olaylik. Ularda denotat (ongda aks etgan borliq),

segnifikat (borliqdagi narsa-hodisalarning ongdagi umumlashgan obrazlari) bilan o`zaro dialektik bog`liqdir.

Tilimizda shunday so`zlar borki, ular denotatlarida mavjud bo`lgan belgini xuddi shunday belgi mavjud bo`lgan va o`ziga o`xshamagan denotatga nisbatan qo`llash orqali nomlaydi. Masalan, qo`zi so`zi anglatgan denotat - hayvon. U hayvon boshqa hayvonlardan, yuvoshligidan, go`shtining shirinligi, terisining foydaliligi (ba`zi turi) bilan ajralib turadi. Xuddi shu belgini biz insonlarga ham ko`chirishimiz mumkin. Bu ikkilamchi nominatsiya vujudga keltiradi. Bu nom faqat nutqiy faoliyat va nutqiy jarayonda obraz markazi orqali yuzaga chiqadi. Ikkilamchi nominatsiya turli jarayonlar ta`sir etadi va nutqiy jarayonda nomlanayotgan predmet yoki hodisaning xarakteri xususiyatidagi bitta belgiga asos bo`ladi. Biz buni S.Ahmad asarlarida ham ko`rishimiz mumkin.

Qo`zi qo`yning bolasi, yuvosh narsa bo`ladi. Mo`minjon aka ham o`z otidan ma`lumki qo`y, og`zidan cho`p olmaydigan odam. Nega shuodamning ne umidlar bilan mo`mingina bo`lsin deb ism qo`ygan bolasi birdan sherga aylanib qoladi.

Qo`zivoy sherga beriladigan go`sht, yog`larni yeb, o`zi sher bo`lib, shemi Qo`zivoy qilib qo`yibdi. (1-jild, "Sher" hikoyasi, 113-bet).

Keltirilgan matnda Qo`zivoy atoqli ot bo`lib kelgan, Yozuvchi buismni tanlashda ham uning anglatgan ma`nosiga e`tibor bergan. Demak, matndagi Qo`zivoy nomi ikkilamchi nominatsiyada hosil bo`layapti. Chunki nomlayotgan narsaga xarakteri xususiyatidagi belgi asos bo`ladi. Bundan tashqari yuvosh so`zini yanada kuchaytirish uchun matnda "Qo`y og`zidan cho`p olmagan odam" degan iborani qo`llaydi va kontekstdagi Qo`zivoy nominima`nosini ochib beradi.

Qo`zivoy ismi asli qo`zi-o`zbekcha so`z bo`lib, uy hayvonidir. Bu so`zdagi "voy" shaxs nomini bildiruvchi otlarga qo`shilib erkalash suyish kabi ijobiy munosabat ifodalovchi shakl yasaydi.

Biz yana yozuvchining "La`li Badaxshon" hikoyasidagi La`li Badaxshon obraziga e`tibor bersak. Hikoyada keltirilishicha, u boylikka ruju qo`ygan, kinoga borishni yaxshi

ko'radigan, taqinchoqlarga o'ta qiziqadigan. Yozuvchi bu obraz ismini ham xarakteriga moslab asli ismini La'li ataydi: Uning asli ismi La'li bo'lsa ham dugonalari La'li Badaxshon deb chaqiradilar. (Saylanma, 1-jild, 345-bet)

Basharasidagi chorakam 1 kilogramm bo'yoq asli yuzini qanaqaligini bildirmaydi. U kinoni, tansani, mashinada yurishni yaxshi ko'radi. (Saylanma, 1-jild, 346 bet).

La'li Badaxshon - Badaxshon la'lisi, ya'ni toza va qimmatbahotoshdir. Yozuvchining hikoyasida bu atoqli ot sifatida qo'llanib ko'chma ma'no kasb etadi.

Yozuvchining "Kolbasa qori" hikoyasida bosh qahramonning ismi noma'lumdir. Uning laqabini kelib chiqish tarixi bor. "Sizlar mesh dindor deb o'ylab g'azaliyotimni ma'qullamayotibsizlar" deb dinsizligini isbotlash uchun atayin qog'ozga o'rab kelgan bir to'rg'am kolbasani g'arch-g'urch chaynab ko'rsatadi. Shu-shubo'ldi-yu, uning ismi Kolbasa qori bo'lib ketadi. (S.Ahmad 1-jild, 209-bet).

Yozuvchi obrazni nomlashda ikki so'zni ishlatgan. Biri musulmonchilikda taqiqlangan kolbasa so'zi bo'lsa, biri musulmonchilikni qattiq tutgan kishilarga nisbatan ishlatiladigan qori so'zidir. S.Ahmad bu ko'rinish orqali asarga hajvni kiritgan va o'quvchining qiziqishini oshirgan.

"Qo'ldoshevich" hikoyasida ham yozuvchi qahramonning asl ismini, o'zi qayerda yashashini aniq bilmaydi. Tanigan ham, tanimagan ham uni Qo'ldoshevich deb chaqirishini aytadi.

Hikoyada tasvirlanishicha, Qo'ldoshevich boshliqlarning qo'yniga kirib, shu yo'l bilan ularningpinjida amalga chiqish istagida yuruvchi odam. Buni asardan keltirilgan parchadan ko'ramiz: *Bungacha boshliq yoniga yaqinlashib qolgan jiyanining jasaki yotgan, uyga kirmoqchi bo'lib, turgan edi. Qo'ldoshevich bir-ikki tamshanib zo'rga: "Jiyanchadan judo bo'lib qoldik" deya oldi. Keyin qo'lidagi choynakni tushirib yubordi. Oh, degancha o'zini yo'lning o'rtasiga tashladi. Ko'ngli ketdi.* (S.Ahmad, 1-jild, 348-bet), Yozuvchi shu tariqa Qo'ldoshevich trest boshlig'ini o'rinbosari lavozimiga chiqqanini yozadi. Demak, uning ismi ham jismiga yarasha qo'ldan qo'lga o'tuvchidir. Badiiy asarda personajlar ismi jismiga mosligi ham asarni yuksaklikka ko'taradi va

yozuvchi mahoratini ko'rsatadi: *Tabrik uchun so'z direktor o'rinbosari Qoraboyevga. Minbarga qog'ozga o'rog'lik bir narsani qo'ltig'iga qistirib olgan basharasi familiyasiga o'xshash qop-qora odam chiqdi. Ko'rinib turibdiki, yozuvchi ismi-jismiga moslash, ya'ni rangini o'xshatish orqali kulgu yaratadi. Yozuvchi obrazlarga nom berar ekan, bu nomning qo'llanishi doirasiga ham e'tiborni qaratadi. Jumladan, Qimizxon barvaqt ishga ketib qolibdi.*(S.Ahmad, Xandon pista, 40-bet.) *Butka oldini supurayotgan cho'tkachi Mullaqand tuyoq tovushini eshitib qaddini rosladi.* (S.Ahmad. Xandon pista, 59-bet). Bunday personaj nomlari nutqda kam qo'llaniladi va o'quvchining qiziqishini oshiradi.

Yozuvchi bundan tashqari kishinomlaridan obrazlar xarakteri harakatiga asosan, laqablar, tanlashga ham e'tibor beradi. Odatda, laqablar har qanday, kishiga qo'yilishi mumkinligi va salbiy ma'noga egaligi bilan ism taxallusdan farq qiladi. Yuqorida biz yozuvchi mahoratidan kelib chiqib taxallusni ham salbiy ma'noda ifodalanganligini ko'rib chiqdik. Laqablar bunday xususiyatlarini o'zida jamlagan holda kulgu qo'zg'atadi, badiiy asarda hajvni kuchaytiradi.

3.3. Metaforik nomlarning hajviy matnlardagi o`rni.

1. Inson tashqi belgilariga bog`liqbo`lgan otlar:

Bunda yozuvchi qahramonlariga qo`yilgan nomlar tashqibelgilariga qarab belgilanadi. Masalan: *Tabrik uchun so`z direktor o`rinbosari Qoraboyevga.*

Minbarga qog`ozga o`rog`liq bir narsani qistirib olgan, basharasi familiyasiga o`xshash qop-qora odam chiqdi. (Saylanma, 1-jild, 181-bet).

Qiltiriq - kadrlar bo`limining mudiri, ozg`in Isaboyev; Malla - kassir, sap-sariq Po`latov;(ola galstuk taqib yuradigan – Xamroyev) Burunboy - burni katta Karimov; Charli Chaplin - burnining tagida qo`ng`iz maylovi bor Mallaboyev; Ho`roz - peshonasida qizili bor axranik amaki. Ulamasoch – anavi praktikaga kelgan Xurramxon.

O`sha eski sekretarimda, taniyabsan, Lampa shisha (Saylanma, 1-jild, 380-bet).

Ammo, bolaligidan ham sal g`o`dayganroq edi. Shuning uchun ham o`rtoqlarimiz uni Hodivoy otiga moslab "Xodavoy" deb atashadi.(Saylanma, 1-jild, 353-bet).

Quloqdan qolgan bolam, oti Xalcha edi. Qarib, bo`shashib qolganidan uni Xalta deyman. (Saylanma, 1-jild, 330-bet).

2. Kishilarning xarakter-xususiyatiga bog`liq atoqli otlar.

Yozuvchi bunda obrazlarning fe`l-atvori va harakatiga e`tiborberadi.

Kalonxo`jayev o`rinbosar tanlashga juda usta odam. Mana Mo`minov degan mo`mingina odamni o`ziga o`rinbosar qilib oldi.

Bechora Mo`minov musichani o`zi, Kalonxo`jayev qo`ng`iroq bosib chaqirganida eshilib, g`ildirakka o`xshab g`ildirab kiradi-da, koptokka o`xshab yana dumalabchiqib ketadi. (Saylanma, 1-jild, 223-bet).

Qobiljon direktorning kabinetidan lattadek bo`shashib chiqdi.U qabulxonada o`tirganlarga loqayd bir nazar tashladi-yu, tez yurib koridorga burildi. (Saylanma, 1-jild, 245-bet).

Turdivoyning do'stlari orqavorotdan Turdi Ilmiliq debatashadi. Bunday deyishiga sabab, gap-gashtlarda uning bor yo'qligibilinmasligida edi. (Xandon pista, 52-bet).

"Ha, barakalla"- dedi Bek. Texnikani egallagan kishilarning sadag'asi ketsang arziydi. Rahmat, uka.

Ketishda Erkin bo'yoq qalamlarini olib chiqqan ekan. Yo'l-yo'lakay sirlangan eshikka, old tomoniga suvratlar ishlab bordi.(Saylanma, 1-jild, 306-bet).

Na otamni bilaman, na onamni. Dadam menga Farmon deb ot qo'yishgan ekan.

Farmon, yeyaver Gebbels, degandan keyin it suyaklarni oyoqlari ostiga olibg'ajiy boshladi (Xandon pista, 17-bet).

2. Qush vahayvonlar nomi bilan bog'liq atoqli otlar.

Said Ahmad asarlarida bunday masalalarni ko'plab uchratishmumkin:Boya domla o'rik haqida qanday to'lib, toshib gapirgan bo'lsa,Burgut ham qulfi dili ochilib,go'l haqida xuddi shunday gapiraketdi. (Saylanma, 3-jild, 325-bet).

Qo'zivoy sherga beriladigan go'sht-yog'larni yeb, o'zi sher bo'lib, sherni Qo'zivoy qilib qo'yibdi.(Saylanma,1-jild, 113-bet).

3. Meva va sabzavot nomi bilan bog'liq atoqli otlar.

Said Ahmad obrazlar laqabini shunday nom bilan keltiradi: Ha! O'zimman. Sarimsoq piyozman. O'zing kimsan Shaftoli qoqimisan? (S.A. 1-jild 1380-bet)

Biz yozuvchining "O'rik domla" hikoyasidagi O'rik domla obrazini ham misol qilib olishimiz mumkin. Bu nom bilan atalishning ham o'z o'tmishi bor: Asli nomini haligacha hech kim bilmaydi. Ammo, O'rik domla desang bo'ldi, katta-kichik taniydi! Joni dili o'rik, rayonlarning kolxozdagi bog'ida shig'il meva berib turgan o'riklar shu domlanning ko'chatidan bo'ladi. (Saylanma,3-jild, 321-bet.)

4. Tarixiy shaxslar nomi bilan bog'liq atoqli otlar.

Adib tarixiy shaxslar nomini keltirish bilan asarda kulgu yaratadi. *Masalan, eshik ochilib, "Azizvoy" degan tovush keldi. Uboshini ko'tarib eshikka qaradi. Unda boshiga kemani to'ntarib kiygandek qalpoq bilan Napoleon Bonapartturardi.* (Xandon pista. 12-bet.)

Yozuvchining boshqa hajviy asarlarida ham tarixiy shaxslar nomlaridan Charli Chaplin, Pyotr Perviy, Nasriddin Afandi kabilarni uchratamiz.

Yozuvchi obrazlar nominiatashda bundan tashqari qisqartirish orqali ham satiraga erishadi: *"Hanifa yangichasiga Xanka",- dedi Tantiboy "Bizning xotin shunaqa" deb pisanda qilayotgandek, gapining oxirini jingalak qilib.*

Uning ustiga shaharga ketib Tantiboy otini Tanka qilib, o'ziga o'xshash beo'xshov xotin olib kelayotgan o'g'lini butun qishloq to'rt ko'z bo'lib kutib turgan edi. (Saylanma, 1-jild, 205-bet)

Demak, (badiiy asardagi) atoqli otlar va kishi laqablari Said Ahmadning hajviy asarlarida asosiy o'rinni egallaydi, alohida ahamiyat kasb etadi. Kishi ismi va laqablarining asl ma'nosi bilan birga, matn ichida bu so'zlarning ko'chma ma'nosini ham aks ettiriladi, o'quvchini obraz xarakter-xususiyati bilan tanishishga chorlaydi.

Badiiy asarlarda kishi nomlaridan tashqari joy nomlari, gazeta, jurnal, kitob nomlari ham keltiriladi. Bunday atoqli otlar odatda, ko'plik formada ishlatilmasligi bilan turdosh otdan farq qiladi.

Joy nomlari geografik nomlar bo'lib, toponimika va gidronimikaga ajratamiz.

Yozuvchi joy nomlarini ham o'ziga xos xususiyatlari, kelib chiqishi, tabiatiga moslab ifodalaydi: Boku dengiz bo'yida, Kaspiy dengizini avval Xazar deganlar. Hozirgi Ozarbayjon ilgari Xazarbayjon bo'lgan. (S.A, "Xandon pista" 6-bet).

Demak, bu davlatning nomi dengiz nomiga qo'yilgan va tovush tushishi natijasida Ozarbayjon bo'lib qolgan.

Yuqorida aytganimizdek, tabiati ham joy nomiga asos bo'ladi: Xrushchev Toshkentga kelganida dadam uni Mirzacho'lga, tulki oviga olib borgan. (S.A "Xandon pista" 71-bet.)

Bu gapdagi Mirzacho`l (nomi), ya`ni (cho`l-suvsiz joy, Mirzo – o`qimishli kishilarga nisbatan aytiladi) mirzolar cho`li, makoni ma`nosini anglatadi.

S.Ahmad "Oq uy" hikoyasida qabriston haqida shunday deydi: Vaxlikkina yetib kelgan yuvguch padari buzrukvori Toshkentni o`rislar olganida shahid bo`lganlardan ikki yuz kishini "Shahidon" qabristonida yotgan marhumlarning deyarli hammasini o`zi kafanlaganini shirin bir entikish bilan gapirib berdi. (S.A. "Xandon pista" 44-bet)

Yozuvchi yuqoridagi shahid ketganlar jumlasini bilan bog`lab qabriston nomini Shahidon ya`ni "ular shahid" deya ataydi.

Yozuvchining "So`nggi nusxa" hikoyasida ham joy nomlari keltirilgan bo`lib, shunday ifodalanadi: Mirzakamoliddin Qo`shtegirmon qishlog`iga kirishi bilan otasining muridi Murodalini surishtiradi. Uning "Ildam qadam" kolxozida samovar qo`yishini eshitib o`sha choyxonaga qo`ydi. (S.Ahmad 1-jild 260-bet).

Bu gaplardagi Qo`shtegirmon - ikki tegirmonli qishloq, "Ildam qadam" kolxozi oldinda yuruvchi kolxoz degan ma`nolarni anglatadi.

Badiiy asarlarda bunday nomlarning qo`llanilishi va ba`zilarini shunday nomga (teskari) nолоyiq ish yuritishi asarini badiiy yuksaltiradi.

Demak, joy nomlari o`sha joyning tarixidan, tarixiy voqealari, tabiiy sharoiti, iqlimi, biror orzu istakni aks ettirish, bir qabila yoki kishi nomiga shu yerda yashovchi kishilar fe`l-atvoridan kelib chiqqan holda ham qo`yilishi mumkin. Badiiy asarda jumladan, Said Ahmad asarlarida, ko`proq tarixiy voqeadan kelib chiqqan holda yoki nomiga xos ish qilmaydigan kolxoz, sovxoz nomlari keltiriladi va bevosita hajvni kuchaytiradi.

Toponimika - joylar: kolxoz, sovxoz, biror tashkilot, o`quv yurti, qishloq, shahar nomlari bo`lsa, gidronomika suv bilan bog`liq, daryo, dengiz, ko`l nomlaridir:

Shohimardon pirimning qabrini bir ziyorat qilar ekanda, Qo`li Qubbonga ham chiqsa kerak?

Bu gapda ma`lumki, qo`l (nomi)Qubbon qo`lidir.

Hayvon nomlari ham atalib qo'yilsa atoqli ot tarkibiga kiradi. Yozuvchining asarlaridan biz ko'proq hayvonlarga atalgan nomlarning chet tilidan olingan so'zlar ekanligini ko'ramiz. Oyoq tovushini eshitgan Gebbels eshik tomon xura boshladi. (S.A. Xandon pista. 20-b).

Mullaqand Ledining nomini tilga olgandayoq Javlonbekning yuragi jiz etib ketgandi. Ledi uning jondan aziz, qadrdon iti edi. (S.A. Xandon pista. 60-b.)

Otamning "Chemberlin" degan echkilari bor edi. Otini o'zim qo'yib bergandim, xaromi juda shayton edi, bemalol uch paxsa devordan sakrar edi. (S.A. 1-jild. 24-b.)

Hayvongaatab qo'yilgan nomlar ham biror belgisi – xususiyatiga qarab belgilanadi. Yozuvchi it nomini ham shunga asoslab qo'yadi vatasvirleydi: Mashinasidek keladi, desam ishonavering. (S.A. Xandon pista. 60-b.)

Said Ahmad asarlarida atoqli otlardan (jurnal, kino, gazeta) va badiiy asar nomlariga ham alohida e'tibor qaratsak. Yozuvchi "Dum" nomli hikoyasida shunday keltiriladi: Zaynobiddin televizorni qo'ydi. Qarasa, "Shubha" degan kino endi, boshlamagan deb ekranga yozilib turar ekan. (S.A. 1-jild. 186 - bet.)

Yozuvchi bu kino nomini keltirish bilan narsani ko'zda tutadi. Birinchisi Zaynobiddinning o'z o'g'li bergan shubhada - h ning dumi bo'ladimi degan savolga shubhalanish bo'lsa, ikkinchisi uning savodini ko'rsatib beradi.

Demak, bu ham yozuvchi mahoratining bir qirrasidir. "Xotinboz chumchuq" hikoyasida keltirishicha bir jurnalda shunday hikoya chop etiladi. Uning muallifi Alimat ota bo'lsa-da, uning nevarasi o'n to'rt yoshli nevarasi nomidan nashr qilinadi.

Bu hikoyaning nomidan ko'rinib turibdiki, kishilarga xos bo'lgan xususiyat qushlarga ko'chirilgan va asarga yumorni kiritgan: Yozuvchi kenja Azimatov o'zining "Xotinboz chumchuq" asari orqali o'ramizdagi xotinbozlari satira o'ti bilan kuydirishga harakat qilgan. (S.A. 1-jild. 198-bet.)

Yozuvchi "Hasrat" hikoyasida atoqli otlardan jurnal nominikeltiradi: - Hoy, "Mushtum" da qachon chiqadi? Yaxshilab yoz. (S.A. 1-jild. 257 - bet.)

Bu gapdagi "Mushtum" soʻzi (jurnal nomi boʻlib) hajviy jurnaldir. Yozuvchining bu hikoyasi xajviy asar boʻlganligi uchun bu soʻz asarichida juda koʻp qoʻllanadi.

Said Ahmad asarlarida televizor, mashina kabi texnika nomlarini ham koʻp uchratamiz. Bunday texnika nomlari bevosita uni kashf etgan odam yoki kashf etilgan yurt bilan ataladi, vazifasiga koʻra belgilanadi: Mulla amaki odamlar koʻziga koʻrinmay koʻya qolay, deb hammadan oldin "Volga"da Mozor betiga borib, to tobut koʻtargan yetib kelishguncha goʻrkov bilan koʻk choy ichib, foni dunyoning isharidan gaplashib oʻtirdi. (S.A. 1-jild. 242 - bet.)

Harkuni tong paytida keladigan "Moskvich" furgon yoʻq boʻlib ketdi. (S.A. Xandon pista. 44-bet.)

Koʻrinib turibdiki, bu gaplardagi ikki avtomobil Volga va Moskvich shaharlarida kashf etilgan.

Yozuvchi texnika nomlaridan "Rubin" nomli televizorni, "Chayka", "Tez yordam" mashinalari kabi, atoqli otlardan keng foydalanadi. Bunday texnika nomlaridan koʻrinib turadiki, ularning sifati, xususiyati oʻzgacha boʻlib, kitobxon buni ajratib oladi.

Xulosa

Til bilan nutq hodisalari hamda ularga xos birliklar biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydigan, biri ikkinchisini taqozo qiladigan, shuningdek, o'zaro farqlanuvchi hodisalar ekanligi, umuman til va nutq birliklarining mohiyatini aniqlash, "til" va "nutq" tushunchalariga yangicha mazmun berilishi F.de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta'limotga borib taqaladi.

Hozirgi o'zbek tilshunosligida ham o'zaro dialektik bog'liq bo'lgan til va nutq hodisalarining aloqadorligi, farqli xususiyatlariga doir masalalar yoritila boshlandi. Zero, muayyan tilning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish, ochish uchun faqat til birliklarining o'zini o'rganish yetarli emas. Chunki til birliklarining jilosi, turfa ko'rinishlarga, kutilmagan ma'no nozikliklariga ega bo'lishi, turli tag ma'nolarga ishora qilishi, umuman, tilning ichki xususiyatlari, estetik funksiyasi nutqda namoyon bo'ladi. Biz buni kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar tahlili misolida ko'rib o'tdik. A.A.Ufimseva ko'rsatib o'tganidek, hatto semantik jihatdan noto'liq ekanligi bilan xarakterlanuvchi, ular uchun faqat nomlash, ifodalashgina xos bo'lgan atoqli otlarga ham muayyan matn (nutq)da qo'shimcha ma'nolar yuklanishi mumkin. Natijada atoqli otlar ham ma'lum ma'noda matn mazmuni bilan bog'liq ravishda mazmuniy tuzilishga ega bo'lib, tag ma'nolarga ishora qiladi. Yoki uslubiy jihatdan betaraf bo'lgan dublet so'zlar ham maqsadli tuzilgan nutq, xususan, badiiy nutq tarkibiga, uning ixtiyoriga o'tgach, qo'shimcha emosional-ekspressiv ma'no nozikliklariga ega bo'ladi. So'zlarning metaforik, metonimik, kinoyali, mubolag'ali ko'chma ma'nolarga ega bo'lishi ham nutq hosilasidir. Shuningdek, semantik tuzilishida o'zaro zid keluvchi semalar bo'lib, semantik jihatdan bog'lana olmaydigan so'zlar ham nutq talabi bilan birikib, so'zlovchi yoki yozuvchining ma'lum maqsadini ifodalaydi.

Tildagi juda ko'p so'zlar ko'p ma'noli bo'lib, ular nutqda ma'lum bir ma'nolari bilangina qatnashadi. Alohida olingan so'zlarning ma'nosi umumlashtirish

xususiyatiga ega bo'lib, uni lug'aviy ma'no deb ataladi. So'zning aniq va muayyan ma'nolari esa faqat nutqda namoyon bo'ladi. Shuning uchun lisoniy birliklarning tildagi va nutqdagi ma'nolari bir-biridan farq qiladi. Demak, har qanday til biriligi nutq jarayoni yoki matnda qo'shimcha emosional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lib qolishi va ma'lum maqsad uchun xizmat qilishi mumkin. Bu hodisa nutq til birliklari uchun "jonlanish" imkoniyati, binobarin, undan farq qilishini ko'rsatadi.

Zero, nutqni o'rganish fonetik o'zgarishlar, leksema, leksik va situativ nominasiya, qurilma (model) va ularning yuzaga chiqish, lug'aviy birliklarning makro va mikrotekstdagi xususiyatlari, o'zbek tili sintaktik sathidagi mohiyat va hodisa kabi masalalarni atroflicha chuqur o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, nutqning o'ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, badiiy asarlarda namoyon bo'lib, unda yozuvchi kitobxonga estetik ta'sir etishni maqsad qilib qo'yadi.

Til birikmalari badiiy nutqda obraz yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi; unda adabiy tilning barcha funksional uslublari (shevaga xos so'zlar kabi) Elementlari birga qo'shilib yoki aralash qo'llanishi mumkin. Ijodkor tilvositalaridan individual ijodiy foydalanish, ularni tanlab ishlatish imkoniyatiga ega.

Demak, badiiy nutqda har qanday til birligi, xatto, uslubiy betarafliklar ham subyektiv munosabat yoki maqsad talabi bilan ta'sirchanlik xususiyatini namoyon qilish mumkin. Masalan, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek atoqli otlar asosan nomlash vazifasini bajaradi.

Xususan, kishi ismlari, joy nomlari, taxalluslar, laqablar va hakazo kabi. Biroq semantik jihatdan noto'liq bo'lgan bunday nomlar ham turli qo'shimcha ma'nolarga ega bo'lib qolishi mumkin.

Atoqli otlarning grammatik shakllarni olishi ham o'ziga xos bo'lib, bunda turli qo'shimcha ma'nolar, subyektiv munosabat o'z aksini topadi va u nutqorqali anglashiladi.

Yozuvchi Said Ahmad mohir soʻz ustasi, oʻtkir hajvlar muallifidir. Uning satirava yumorgaboy asarlari kitobxonni fikrlashga, teran oʻylashga, mazmunli dam olishga yordam beradi.

Biz bunday adibni "Hajv bogʻining bulbuli" deyishimiz mumkin. Uning asarlaridagi personaj nomlari ham beoʻrin ishlatilmaydi: obraz xarakterini, uning belgi-xususiyatini, yozuvchining koʻzlagan maqsadini ochib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun yozuvchi asarlarida qoʻllangan nomlar maʼlum semantik tuzilishga ega boʻlib, kinoyaviy tag maʼnolar kasb etadi.

- Bu nomlar kishilarning odatlari, qiliqlari, vazifasiga ishora qiladi.
- Asarda nomlar orqali qahramonlar individualligiga erishiladi.
- Obraz xarakter - xususiyatini ifodalaydi.

Yozuvchining hajviy asarlaridagi kishi nomlaridan laqablar ham muhim oʻrin egallaydi. S. Ahmad asarlarda obrazlarning asl ismini keltirmaydi, balki oʻquvchiga yanada mukammal tanishtiradi. Laqablarning aksariyati personajni turli narsalarga oʻxshatish orqali maʼlum belgilarni ifodalaydi. Bunda soʻzning shakli va mazmuniy tuzilishidagi mutanosiblik muhim rol oʻynaydi. Ana shu mutanosiblik asosida qoʻshimcha maʼnolar ega boʻlib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Т.: Фан, 1983.
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Т.: Фан, 1987.
3. Абдуллаев Х. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: филол.фан.ном.дисс. –Т., 1993.
4. Абдурахмонов Ғ. Ҳозирги замон ўзбек тилининг адабий услуби ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти. -1992. -№5-6.
5. Аҳмедова Ш.Саид Аҳмаднинг кулги яратиш маҳорати. Ўзбек тили ва адабиёти. 1993. -№ 5-6.
6. Баскаков Н.А., Содиқов С., Абдуазизов. Умумий тилшунослик. – Т.: Ўқитувчи, 1979.
7. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умуркулов Б. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. – Т.: Фан, 1988.
8. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1993.
9. Юлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд: Сам.Дав.ун-ти, 1982.
10. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол.фанлари док... дисс. – Т., 1993.
11. Лапасаов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Т., 1995.
12. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. –Т.: Фан, 1988.
13. Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап. Ўзбек тили ва адабиёти. 1986. -№ 6.
14. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). –Т.: Ўқитувчи, 1995.
15. Мелиев С. Контекстда сўз динамикаси. Ўзбек тили ва адабиёти. 1983. -№4.
16. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Т.: Фан, 1975.

17. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
18. Миртожиев М. Товушлардаги маънолар. –Т.: Ўзбекистон, 1988.
19. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Т.: Фан, 1976.
20. Муҳаммадиев Р. Аския: филол.фанлари ном...дис. – Т., 1961.
21. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Т.: Ўқитувчи, 1993.
22. Неъматов Х. Сўз, унинг тил ва нутқдаги ўрни. Ўзбек тили ва адабиёти. – 1988. - №6.
23. Нурмонов А. Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. – Андижон: АДУ, 1992.
24. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Фан, 1992.
25. Нурмонов А. Кўмакчи конструкциялар пресуппозисияси. Ўзбек тили ва адабиёти. – 1986. - №6.
26. Расулов Р. Сўз валентлиги ва синтактик алоқа. Ўзбек тили ва адабиёти. – 1992. № 5-6.
27. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозисияси: филол.фанлари ном...дисс. – Самарқанд, 1994.
28. Раҳматуллаев Ш., Юнусов Р. Семемаларнинг семалар состави ва семантик боғланиш масаласи. Ўзбек тили ва адабиёти. – 1979. - №1.
29. Раҳматуллаев Ш. Семема – мустақил тил бирлиги. Ўзбек тили ва адабиёти. – 1984. - №5.
30. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. Фразеологик бирликларда полисемия, синонимия, антонимия. – Т.: Фан, 1966.
31. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. –Т.: Фан, 1954.
32. Тоҳиров З. Ўзбек тилида прагматик семаларнинг ҳосил бўлиши ва уларда субъектив муносабатнинг юзага чиқиши: Автореф. филол.фанлари ном... дис. – Т., 1994.
33. Тоҳиров З. Метафора лексема семемасининг прагматик семаси. Ўзбек тили ва адабиёти. – 1983. - №4.

34. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
35. Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ. – Т.: Ўқитувчи, 1993.
36. Шамсиддинов Х. Перифраза хусусида айрим мулоҳазалар. Ўзбек тили ва адабиёти. – 1993. - №4.
37. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1983.
38. Ўзбек тили грамматикаси. Ғ Масъул муҳаррирлар Ғ.Абдурахмонов ва бошқалар. 2-том. – Т.: Фан, 1981.
39. Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: Фан, 1981.
40. O`zbek tilining izohli lug`ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. 5 jildlik. – Toshkent, 2006-2008.
41. Қўрғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1992.
42. Ҳакимов К.М. Ўзбек тилида содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанлиги: Автореф.филол.фанлари ном... дисс. – Т., 1994.
43. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: Фан, 1985.
44. Маҳмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантак-синтактик асимметрия. — Тошкент; Ўқитувчи, 1984.
45. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 3-нашри. - Тошкент: Ўқитувчи, 1987. -Б.58-59.
46. Одилов Ё. Маъновий зидликнинг дисфемик тарзда берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. 2014. №3. - Б.69 - 70.
47. Грамматика современного башкирского литературного языка. - М.: Наука, 1981. - С.110, 188.
48. Дмитриев Н.К. Строй тюркских языков. - М.: Восточная литература, 1962. -С.133.
49. Шиянова А.А. История изучения парных слов в финно-угорском языкознании // Вестник угроведения. №1 (8). 2012. - С.65.

50. Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII- IXвв. -Л.: Наука, 1980.-С.99-101.
51. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. - Тошкент: ЎзФА, 1963.-Б.41-42.
52. Майтинская К. Е. Об одной модели парных местоименных слов в финно-угорских языках // Сущность, развитие и функции языка. - М.: Наука, 1987. - С.146.
53. Кодухов В.И. Введение в языкознание. М., 1979 г. Ст. 195.
54. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. Тошкент, Фан, 1982, 10-б.
55. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. Тошкент, Фан, 1974, 33-б.
56. Умуркулов Б. Бадиий адабиётда сўз. Тошкент, Фан, 1993, 16-б.
57. Раҳимов У. Коса, коса тагида ним коса. Андижон, 1995 й. 44-б.